QALQON

ЩИТ • SHIELD

5 (332) 2026
MAY

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI JURNALI
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
JOURNAL OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

INSON – AZIZ,
XOTIRA – MUQADDAS!

USHBU SONDA





2 ДОРИЛАМОН КУНЛАР ШУКРОНАСИ

6 EZGU EVRILISHLARGA YUZ TUTGAN YURT

7 HAR JABHADA IBRAT

8 OILAVIY AHILLIK – MUVAFFAQIYAT GAROVI

10 JAVOHIRNING MUNOSIB IZDOSHLARI

12 QADRIYATLARGA SODIQ QOLIB

14 ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA

16 РАСШИРЯЯ ГОРИЗОНТЫ

17 ИККИНЧИ УМР

18 CHEMPIONLAR MASKANI

20 ZABARDAST OLIM, ZAHMATKASH PEDAGOG

22 ҒАНИЖОН ОТАНИНГ ИККИ «ҚАДРДОНИ»

27 ВИДЕТЬ СЕРДЦЕМ

28 MEHR – HAMMA UCHUN TUSHUNARLI TIL



30 ПРЕДУПРЕДИТЬ, ЧТОБЫ ОБЕЗОПАСИТЬ

31 A ROLE MODEL AT WORK AND AT HOME

32 YO‘L QURILISHI: ILM VA ISHLAB CHIQARISH UYG‘UNLASHGANDA

36 QALBDAN CHIQQAN NIDO

37 HARBIYLAR HAYOTIDA MUSIQA

40 DALILLAR TILGA KIRGANDA…

42 INSPEKTOR BOTIROVNING BIR KUNI

44 KAMPIRTEPA YODGORLIGINING SIRLARI

46 ANOR

48 THANKFUL FOR THE GOOD OLD DAYS

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ijtimoiy-huquqiy jurnali

QALQON-ЩИТ-SHIELD

2026-yil 5 (332)-son
1998-yil sentabr oyidan chiqa boshlagan

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Bosh muharrir, podpolkovnik
Xurshidbek RO‘ZIYEV

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV,
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrir
Erkin SATTOROV

Nashr uchun mas’ul
Bobomurod TOSHEV

Sahifalovchi
Bahrom NORMURODOV

Navbatchilar
Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
Yuliya MUSTAFAYEVA
Tuzatuvchi
Muqaddas ARIPDJANOVA
Fotomuxbirlar
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2018-yil 10-avgustda 0125-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda “Qalqon-Щит-Shield”dan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Jurnal IIV Birlashgan tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Bosishga ruxsat etildi
2026-yil 26-may
Formati 60x84 1/8. 6 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Buyurtma № 680
Nashr adadi 14 596
ISSN 2010-5347

“PRINTUZ” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Mas’ul Akmal MURATOV
Toshkent sh. Mirobod tumani, Qo‘shko‘prik ko‘chasi, 28/1-uy.
Indekslar: yakka tartibdagilar uchun – 970
tashkilotlar uchun – 1083.

Manzilimiz: 100070,
Toshkent shahri Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Telefonlar:
71-231-33-88,
71-231-41-66.

ДОРИЛАМОН КУНЛАР ШУКРОНАСИ

(очерк)





...Болакай ҳеч нарсага тушунолмади. Отаси эрта вафот этганди. Бугун онаси ҳам оламдан ўтди. Уни эндигина ўн икки ёшга тўлган Жамила опасига топшириб, отасининг ортидан равона бўлди.

– Аҳмеджон, укажоним, чин етим бўлиб қолдик!

Беш ёшли Аҳмед опасига қўшилиб, ҳовлини бошига кўтариб «дод» солиб йиғлагиси келди. Лекин ҳадеганда кўзидан ёш чиқавермагач, ёлғон йиғлашни эп билмай, ўзини тийиб турди. Опаси тинимсиз, «Онажоним»лаб, «Бизни кимларга ташлаб кетдингиз, меҳрибоним, муштипарим», дея йиғлайвергач, беихтиёр унинг кўзидан ҳам ёш қуйилди.

Тобут кўтарилди. Катталар тайинлагач, Аҳмед олдинга ўтиб, «Онажоним»лаб мозорга борди. Марҳумани яқинлари йўқлиги туфайли, қўшниси қабрга қўйди. Аввал болакай катта кетмон билан қабрга тупроқ тортди. Сўнг бошқалар унга қўшилишди...

Одамзот ҳар нарсага кўникар экан. Барча ғам-ғуссанинг давоси вақт экан. Онасининг қазосидан кейин бир-бирини қувлаб йиллар ўтаверди. Ҳаш-паш дегунча унинг ёшига ёш қўшилиб, бўйи чўзилиб қолди.



Аҳмед уйига келса, опаси йиғлаб ўтирибди. Билдики, бир ҳафта олдин фронтга чақиртиришларини сўраб, ҳарбий комиссариатга хат йўллагани изсиз кетмаган, унга чақирув қоғози келган эди. Тўғри-да, қирғинбарот уруш бўлаётган бир пайтда ўзини четга олиш номардлик. Опаси эса ёлғиз инисини урушга юборишга қаршилик қилиб келаётган эди. Лекин ука аҳдидан қайтмади.

Ниҳоят, ҳали ўн саккизга кириб улгурмаган Аҳмед ўн олти нафар қишлоқдош йигитлари қаторида фронтга жўнатилди. Улар қурол нима, ўқ нима – ҳеч нарсадан хабарсиз, тўғридан-тўғри «ажалнинг ўчоғи» саналган Сталинградда кечаётган оловли жанггоҳга юборилди.

Аҳмед билан бирга борган бухороликларга нишонни 30 километргача ура оладиган тўпларга снаряд жойлаб, отишга шай ҳолатга келтириб қўйиш топширилди. «Қолганини урушнинг ўзи кўрсатади», дейишди командирлар. Ҳақиқатан, шундай бўлди. Икки кун ўтгач, Аҳмеднинг кўз ўнгида снаряд жойлайдиган йигит душман бомбаси туфайли парча-парча бўлиб кетди. Гуруҳ командири Аҳмедга тўпни ишониб топширди. Чунки у шу қисқа вақт ичида тўпдан душманнинг танкини нишонга олишни ўрганиб олган эди.

Жанг шиддат билан кечарди. Душман танклари яқинлашавергач, аскарлар саросимага туша бошлашди. Шунда довюрак Аҳмед Муҳсинов гуруҳ командирига пистирма режасини таклиф қилди. Режага кўра, бир бўлинма вақтинча ўқ отмаслиги, ўзини гўёки сафдан чиққандек кўрсатиши керак эди. Иккинчи бўлинма аёвсиз қаршилик кўрсатиб, душманга қақшатқич зарба бераверади. Режа ўта қалтис эди. Мабодо, бу ҳийла иш берса, душман тузоққа тушиши тайин эди.

Лекин фашистлар ҳам анойи эмас экан. Аввалига роса ўша томонга ўқ ёғдиришди. Ҳеч қандай садо чиқмагач, улар ўлган ёки саросимага тушиб қочиб кетишган, деган қарорга келишди. Шундан сўнг бир томонлама ҳужумга ўтиб, қуршовга олаверди. Кутилмаганда «яхлатиб» қўйилган қанот шунақанги қақшатқич зарба бердики, фашистлар ваҳимага тушиб қолишди. Орқага чекинишнинг йўлини излашди. Бироқ бунинг сираям иложи бўлмади. Шиддатли жанг охирида таслим бўлишди.

Шундай қилиб, Аҳмеднинг ҳийласи иш бериб, тўхтовсиз тўрт ой давом этган жангда



душманнинг ҳарбий қисми командирини асирга олишди. Батальон аскарлари тақдирланди. Муҳсинов илк жанговар медалини ана шу жасорати учун олди. Лекин катта йўқотишлар ҳам бўлди. Ўзи билан борган ҳамқишлоқларининг аксарияти шу жангда ҳалок бўлишди.

Сталинград бутунлай озод этилгач, батальон Узоқ Шарқ томонга йўналтирилди. Кичик сержант Аҳмед Муҳсинов Владивостокдаги денгиз пиёдалари қўшинлари таркибида хизматни давом эттирди. Урушда қанчадан-қанча қуролдошлари қурбон бўлди. «Қирқ йил қирон келса, ажали етган ўлади» деганларидек, унинг пешонасига омон қолиш битилган экан. Лейтенант Аҳмед Муҳсинов 1947 йили она шаҳри – Бухорога соғ-омон қайтди.



Урушдан сўнг Аҳмед Муҳсинов вилоят босмахонасида масъул вазифада ишлаб, Бухоро педагогика институтининг тарих факультетида сиртдан ўқиди. Олий маълумотли бўлгач, Ромитан туманининг Челонғу қишлоғидаги ўрта таълим мактабида ўқитувчилик қилди. Сўнгра вилоятдаги ташкилотларда турли раҳбарлик лавозимларида ишлади.

Ички ишлар органларидаги фаолиятини 1969 йилдан бошлади. Уни вилоят ИИБ сиёсий бўлими бошлиғининг ўринбосари этиб тайинлашди. Ўн беш йил давомида мазкур тизимда самарали хизмат қилиб, майор унвонида ҳурмат-эҳтиром билан пенсияга кузатилди.

Лекин истеъфога чиққанидан сўнг ҳам қўл қовуштириб ўтиргани йўқ. Оила-турмуш доирасидаги низоларга чек қўйишга маҳалла раисига қўлидан келганча кўмаклашди. Шунингдек, маҳаллада, мактаб ва коллежларда ўтказилган профилактик тадбирларда фаол қатнашди.





Аҳмед бобо бугунгидек дорилаамон кунларга етгани учун шукроналар қилади. Юртимиздаги тўкинсочинлик, ободончиликларни кўриб қувонади. Юртбошимизнинг кексаларга кўрсатаётган ғамхўрликларидан кўнгли тоғдек кўтарилади. Бу йил ҳам Иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари қатори ўзи ҳам рағбатлантирилганини эшитиб, Президентимиз ҳақига дуо қилди.

Отахон рафиқаси Нарзи ая билан беш қиз ва икки ўғилни вояга етказиб, ҳаммасини ўқитиб олий маълумотли қилди. Невараю чеваралари етмиш нафардан ошди. Айни кунларда Аҳмед бобо кичик ўғли Аброр, келини Зуҳрахон, набиралари Анваржон, Санжаржон, Исломжон ва набира келинлари меҳридан баҳраманд бўлиб яшаяпти. Доимо тинчлик бебаҳо неъмат эканлигини, бугунги осойишта ҳаётнинг, мусаффо осмон остида кечираётган фаровон турмушимизнинг қадрига етиш лозимлигини оила аъзоларига уқтиради.


– Отам туфайли уйимизнинг файзу тароватi бўлакча, – дейди Аброр ака ғурурланиб. – Шукрлар бўлсинки, орзу-ҳавасларимиз бирин-кетин ушаляпти. Машинали бўлдик, ҳашаматли иморат тикладик. Ўғил-қизларни ўқитдик, уйли-жойли қилдик. Буларга дадамнинг насиҳатлари ва йўл-йўриқлари туфайли эришяпмиз. Бахтимизга омон бўлсинлар.

Аҳмед бобо яқинда табаррук бир юз уч ёшни қаршилади. Тирик афсонага айланиб улгурган пири бадавлат отахоннинг кўксини бир шода орден-медаллар, кўкрак нишонлари безаб турибди. Улар орасида мустақил Ватанимизнинг юксак мукофоти – «Жасорат» медали ҳам бор. Жасоратли умр соҳибига бу мукофот жуда ҳам ярашади.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.

EZGU EVRILISHLARGA YUZ TUTGAN YURT



Ostona hatlab idoramizga bo‘lajak kelin-kuyov oila qurish istagida kirib kelishganida, ko‘zlaridagi quvonch, kelajagiga ishonchni ko‘rib yayrayman. Ular o‘zlarini emin-erkin tutishadi. Yoshlar erkinlik havosidan bahra olib, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga keng yo‘l ochilgan, millat sifatida barq urishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan muhitda ulg‘aygan. Kelajagimiz bunyodkorlarida milliy qadriyatlarimizga o‘zgacha hurmat, sadoqat shakllangan!

Har gal «Tabriklayman, siz O‘zbekiston Respublikasining yangi oilasi bo‘ldingiz!» deb tantanali e’lon qilar ekanman, ulardagi cheksiz his-hayajon, baxt tuyg‘usi beixtiyor menga ham ko‘chadi. Yosh kelin-kuyovlarni yangi hayotga kuzatar ekanman, yangi oila yangi O‘zbekiston tayanchi ekanini, mamlakatimizda oilalarni qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘plab ezgu ishlar amalga oshirilayotganini ularga eslatib qo‘yaman.

Darhaqiqat, ularga har tomonlama havas qilsang arziydi. Xizmat yuzasidan shahardagi ko‘plab yosh oilalarning ijtimoiy holatini o‘rganishga ham chiqib turamiz. Ularga subsidiya asosida yangi xonadonlar olish imkoniyati yaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Qanday yaxshi-ya! Endigina tetapoya bo‘layotgan oilaning oyoqqa turishi uchun davlatning o‘zi g‘amxo‘rlik qilib tursa! Ularga imtiyozli foizlarda ipoteka krediti ajratilsa, ishga, o‘qishga joylashishida ko‘maklashilsa! Menimcha o‘z farzandlari uchun mana shunday g‘amxo‘rlik qiladigan davlatlar dunyoda juda kam.

Darvoqe, e’tiborga molik statistika. Oila qurayotganlar orasida oliy ma’lumotli yoshlar salmog‘i yildan-yilga oshib bormoqda. Bu juda quvonarli. Oliy ma’lumotli bo‘lish oiladagi muhit, uning kelajagi uchun har tomonlama muhim. Bunday oilada tarbiyalanadigan bolalarning dunyoqarashi ham, kelajagi ham o‘zgacha bo‘ladi. Ayniqsa, turmush tarzi, uy-ro‘zg‘orni yuritish ham shunga monand bo‘ladi. Bunga ko‘p bora amin bo‘lganman.

Yana bir quvonarli jihati shahrimizda oilaviy ajrimlar, nizolar soni yildan yilga kamayib boryapti. Bu ham mustaqillik tufayli ravnaq topayotganimiz, oilalarning daromadi ortayotgani, ijtimoiy muammolar ko‘lami kamayib borayotganidan. Oddiy davlat xizmatchisi sifatda mana shunday ezgu evrilishlarga zamin bo‘lgan yurtimiz suvereniteti abadiy bo‘lishiga tilakdoshman. Ozod yurtdagina ozod odamlar yashaydi. Erkin mamlakatgina ravnaq topadi, gullab-yashnaydi!

Nasiba TIRKASHEVA,
Shirin shahar FHDYO bo‘limi mudirasi.

PATRUL SHAHAR KEZADI

HAR JABHADA IBRAT



Kechasi soat taxminan 23:00 lar atrofi. Karmana tumani markazdagi ko‘chalarda transport harakati biroz susaygan. Piyodadalar oqimi ham ancha kamaygan. Faqat onda-sonda kechki sayrdan yoki mehmondorchilikdan qaytayotganlar uchrab turibdi.

Navoiy viloyati IIB JXX JTSB PPXB tumanlararo patrul-post otryadi 1-guruh inspektori, kichik serjant Azizbek Mahmudov odatdagidek xizmat hududini aylanib yurar ekan, bekatdagi do‘kondan baqir-chaqirni eshitib qoldi. U hamkasbiga «Hushyor bo‘l!» degandek har jabhada imo qilib, bekat tomonga yugurdi. Shunda do‘kondan otilib chiqayotgan erkakni ko‘rdi. Uning orqasidan yugurib, qo‘lga oldi.

Bejiz haligi yigitdan shubhalanmagan ekan. Aniqlanishicha, mast holdagi bu fuqaro sotuvchi va boshqa xaridorlar bilan janjallashgan, so‘ng spirtli ichimlikni olib, pulini to‘lamasdan qochib ketgan. Kichik serjant Azizbek Mahmudov uning shaxsiga aniqlik kiritganida, muqaddam o‘g‘rilik sodir etishda gumon qilingan 42 yoshli qidiruvdagi shaxs bo‘lib chiqdi. Inspektor hushyorligi va tezkorligi tufayli bir jinoyatning oldi olindi hamda qidiruvdagi shaxsni ushladi.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2002-yilda boshlagan. 2023-yildan buyon esa PPX bo‘linmalari safida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash yo‘lida sidqidildan xizmat qilib kelmoqda. O‘tgan davr ichida to‘plagan tajribasi, orttirgan mahoratini joyida qo‘llab, safdoshlari va yosh xodimlarga o‘rnak bo‘lyapti.

– Shu tizimda qariyb 25 yildan buyon xizmat qilyapman. Faoliyatim davomida qanchadan-qancha voqealar guvohi bo‘ldim. Turfa fe’l-atvordagi fuqarolar bilan yuzma-yuz keldim, qiyinchiliklarni boshdan kechirdim. Ammo har qanday holatda ham boshqa sohani tanlash haqida o‘ylamadim. Sababi, kasbimni yaxshi ko‘raman. Odamlarga yordamim tegayotganidan quvonaman, – deydi u faxr bilan.

Kichik serjant Azizbek Mahmudovning ikki o‘g‘li ham ota kasbini davom ettirishni niyat qilgan. Katta farzandi Aslbek Nusratov bugungi kunda IIV Akademiyasining 3-bosqichida tahsil olmoqda. Asadbek Nusratov esa IIV Navoiy akademik litseyi o‘quvchisi. Bu otaning nafaqat xizmatda, balki oilada ham ibratli inson ekanini ko‘rsatadi.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

OILAVIY AHILLIK – MUVAFFAQIYAT GAROVI

Oilada berilgan to‘g‘ri tarbiya inson umrida, taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan oila muhitida shakllangan qadriyatlar, intizom va bilimga bo‘lgan muhabbat uni kelajakda yutuqlar sari yetaklaydi. Sho‘rchi tumani IIB huzuridagi Tergov bo‘linmasi boshlig‘i, podpolkovnik Farhod Sharipovning hayot yo‘li buning yorqin isbotidir.

– O‘qituvchi oilasida ulg‘aydim. Oilada 6 nafar farzand edik. Ular doim o‘qishimizga, tarbiyamizga e’tibor qaratganlar. Uyimizda alohida darsxonamiz bo‘lardi. Uning devorida jahon xaritasi va O‘zbekiston xaritasi ilingan turardi. Otam dunyoning, Vatanimizning hududini o‘rgatardilar. Onam dars tayyorlashimizni nazorat qilardilar. Bu bizning oliy ma’lumotli bo‘lib, jamiyatda o‘rnimizni topishimizga yordam berdi, – deydi podpolkovnik Farhod Sharipov.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlari tizimidagi xizmat faoliyatini 2013-yilda tergovchi lavozimida boshladi. Uning kasbiy o‘sishi bosqichma-bosqich, lekin nisbatan tez kechdi. Qisqa vaqt ichida o‘zining iqtidori, salohiyati va intiluvchanligini ko‘rsata oldi. Keyingi yili «Yilning eng yaxshi tergovchisi» tanlovida viloyatda birinchi, respublika miqyosida esa uchinchi o‘rinni egallagani so‘zimizning isbotidir. 2015-yilda esa «Parlamentarizm bilimdoni» tanlovida faol ishtirokchi sifatida e’tirof etildi.

Uning kasbiy faoliyatidagi yana bir muhim jihati murakkab va o‘ta muhim ishlarni tergov qilishdagi mahoratidir. Tergovchi nafaqat qonun bilimdoni, balki yaxshigina psixolog va zukko kitobxon bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Darhaqiqat, tergov jarayonida inson ruhiyatini anglash, voqealarni chuqur tahlil qilish va aniq xulosalar chiqarish katta aqliy mehnatni talab etadi. Shu bois u badiiy adabiyot mutolaasiga alohida e’tibor qaratib, 300 ga yaqin asarni o‘qib chiqqan.

Bir voqea uning hech yodidan chiqmaydi. Bu jinoyat 2015-yilning noyabr oyida kuzning sovuq shamoli esgan kunlarning birida Denov tumanida yuz berdi. Tuman IIBga «Sina» qishlog‘ida yashovchi fuqaro o‘qotar quroldan yaralangani haqida xabar qilishdi. Farhod Sharipov boshchiligidagi tergov-tezkor guruhi darhol voqea joyiga yetib bordi. U vaziyatni nazoratga olib, qishloq ahlidan voqea tafsilotlarini sinchiklab surishtirishga kirishdi.





Natijada o‘sha kunning o‘zidayoq gumon qilinuvchi qayerda yashirinib yotgani aniqlanib, zudlik bilan xodimlar tomonidan o‘rab olindi. Podpolkovnik Farhod Sharipov hamqishlog‘ini yaralagan kishi bilan yakkama-yakka muzokara olib bordi. Shundan so‘ng gumon qilinuvchi qo‘lga olindi. Jinoyat quroli ham yashirilgan joyidan topildi. Shu tariqa jinoyat bir kun ichida fosh etildi.

Qisqa vaqt davomida vaziyatni har tomonlama tahlil qilib, turli taxminlarga qaramay gumon qilinuvchi aynan kimligini, qayerga yashiringanini aniqlash oson ish emas. Jinoyatchi bilan to‘g‘ri muzokara olib borib, uni qo‘lga olish alohida qobiliyatni, qolaversa, jasoratni talab qiladi. Shu va shunga o‘xshash jihatlar esa kasbiy mahoratning muhim qirralarini tashkil etadi.

Lavhamiz qahramoniga 2021-yilda muddatidan oldin «mayor» unvoni, yaqinda esa «podpolkovnik» unvoni berildi. Shuningdek, uning ota-onasiga IIV huzuridagi Tergov departamenti rahbariyati tomonidan ikki bor tashakkurnoma yuborildi.

– Inson ish faoliyatida chigal vaziyatlarga duch kelganida odatda bilim va tajribasiga suyanadi, ustozlaridan maslahat, yo‘l yo‘riq so‘raydi. Chunki bilimli inson hech qachon xato yo‘ldan yurmaydi, doim to‘g‘ri qaror qabul qila oladi. Men ham hayotim davomida ota-onam bergan o‘gitlardan tegishli xulosa chiqarib, bilim olishga doim intilganman, – deydi lavhamiz qahramoni.

Farhod Sharipovning hayot yo‘li – tarbiya, bilim, tajriba va mehnat uyg‘unligi qanday ijobiy natijalarga olib kelishining yaqqol namunasidir. Bu faqat bir insonning muvaffaqiyati tarixi emas, balki boshqa ko‘plab oilalarga va yosh avlodga ibrat bo‘la oladigan hayotiy saboqdir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

IIV TA’LIM MUASSASALARIDA

JAVOHIRNING MUNOSIB IZDOSHLARI





Yurtboshimiz tomonidan shaxmatga qaratilayotgan yuksak e’tibor o‘z mevasini berib, yurtimizdan xalqaro maydonlarda zafar quchayotgan mahoratli grossmeysterlar avlodi yetishib chiqmoqda.

> Yaqinda Javohir Sindorovning Nomzodlar turnirida g‘alaba qozonib, yuksak natijaga erishgani barchamizga cheksiz faxr bag‘ishladi. Musobaqa davomida u dunyoning eng kuchli grossmeysterlariga qarshi dona surib, o‘z ustunligini namoyon etdi. Bir marta ham mag‘lubiyatga uchramay, 14 ta partiyada 10 ochko to‘pladi, natijada ochkolar va g‘alabalar soni bo‘yicha rekord o‘rnatdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan shaxmatni ommalashtirish va yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish borasidagi islohotlar ta’lim muassasalarida ham o‘z aksini topmoqda.

Xususan, IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati qoshida faoliyat yuritayotgan shaxmat to‘garagi ana shunday iqtidorlar maskaniga aylangan.

Yosh shaxmatchilarning ruhiyatini ko‘tarish va ularga mahorat saboqlarini berish maqsadida dunyo tan olgan shaxmat ustalari Javohir Sindorov va Shamsiddin Vohidov mazkur bilim maskanida bo‘lib, o‘quvchilar bilan bir necha bor mahorat darslari o‘tkazishgan. Ushbu uchrashuvlar va Javohirning jahon arenasidagi so‘nggi muvaffaqiyatlari o‘quvchilar uchun yuksak motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

– To‘garagimizda 20 nafar eng iqtidorli o‘quvchilar haftada uch marotaba shaxmat sir-asrorlarini qunt bilan o‘rganishmoqda, – deydi to‘garak rahbari Abduhamid Ziyoyev. – Biz nafaqat nazariy bilim beramiz, balki shaxmat olamidagi eng so‘nggi uslub va yurishlarni ham tahlil qilib boramiz. Mashhur grossmeysterlarimiz ishtirok etayotgan





nufuzli musobaqalarni jonli kuzatib, ularning har bir yurishini, tanlagan strategiyasini mashg‘ulotlarimizning asosiy qismiga aylantirganmiz. Maqsadimiz faqatgina o‘yin o‘rgatish emas, balki xalqaro maydonda raqobat qila oladigan kuchli shaxmatchilarni tayyorlashdan iboratdir.

To‘garak a’zolarining mehnatlari allaqachon o‘z natijasini bera boshlagan. Hozirda o‘quvchilarning 4 nafari tuman, shahar, viloyat va hatto respublika miqyosidagi musobaqalarda g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarilishgan. Xususan, 9-sinf o‘quvchisi Kamron O‘sarov Toshkent shahrida o‘tkazilgan musobaqada faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan, 8-sinf o‘quvchisi Muhammadzohir Nuraliyev Yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Sirdaryo viloyati birinchiligida 2-o‘ringa loyiq ko‘rilgan. Maktab-internat bitiruvchisi Javohir Yasinov 2022-yilda respublika yoshlari o‘rtasida birinchi o‘rinni egallab, ta’lim maskani dovrug‘ini butun yurtga tanitgan.

– Shaxmatga kichkinaligimdan qiziqaman, bu sport turi insonni sabrli bo‘lishga, har bir qadamni oldindan hisoblashga o‘rgatadi va aqlni charxlaydi, – deydi Kamron O‘sarov. – To‘garagimizda haqiqiy sog‘lom raqobat muhiti shakllangan. Haftaning belgilangan kunlarida to‘garak a’zolari bilan o‘zaro dona surib, mahoratimizni sinovdan o‘tkazamiz. Bunday doimiy musobaqalashish bizni o‘z ustimizda muntazam ishlashga majbur qiladi. Ustozlarim yordamida nafaqat kombinatsiyalarni o‘rganyapmiz, balki g‘alabaga bo‘lgan irodani ham toblayapmiz. Orzuyim kuchli shaxmatchi bo‘lib yetishib, O‘zbekiston bayrog‘ini jahon arenalarida yuqori ko‘tarishdir.

Shaxmat to‘garagida nafaqat sportchilar, balki kelajakning yetuk qobiliyatli kadrlari tarbiyalanmoqda. Bu yerdagi har bir yurish, har bir mashg‘ulot ertangi kunning yangi Sindorovlarini kamolga yetkazish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



SULOLA

QADRIYATLARGA SODIQ QOLIB

Jamoat joylaridagi, mahallalardagi tinchlik-osoyishtalik, aholining xotirjamligi, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining ulkan hissasi bor. Ushbu tizimda fidoyilarcha xizmat qilayotgan sulolalar vakillarini ham uchratish mumkin. Quyida ulardan biri haqida hikoya qilamiz.

Podpolkovnik Saloydinxon Botirov bugungi kunda Samarqand viloyati IIB TQX JQB Mulkiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘limi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili. U xizmat faoliyati davomida ko‘plab jinoyatlarni fosh etishga muvaffaq bo‘lgan.

U xizmatda toblandi, har bir ishda sobitqadamlik va hushyorlikni bosh mezonga aylantirdi. U ishtirok etgan har bir tezkor tadbir, ochilgan har bir jinoyat zamirida uzoq izlanish, mashaqqatli mehnat va ulkan mas’uliyat mujassam. Ayniqsa, o‘tgan davrda, ya’ni ilgari sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish oson kechmaydi. Bunday vaziyatda tezkor xodimdan yuksak zehn, kuchli tahlil va sabr-toqat talab etiladi.

U xizmat faoliyatida erishilgan yutuqlar jamoaviy hamjihatlik samarasi deb biladi. Chunki ichki ishlar organlarida har bir natija ortida umumiy maqsad yo‘lida birlashgan hamkasblar, turli sohaviy xizmatlar vakillarining o‘zaro hamkorligi turadi. Hozirda u o‘z jamoasida nafaqat ishonchli hamkasb, balki talabchan va bir vaqtning o‘zida tajribasini o‘rgatishga tayyor ustoz sifatida ham e’tirof etiladi.

Saloydinxon Botirov ota kasbini davom ettirayotganidan faxrlanadi. Uning padari buzrukvori marhum starshina Botir Yunusov 28 yil mobaynida Samarqand viloyati Payariq tumani IIB YHXB inspektori lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. Akasi marhum mayor Shodixon Yunusov ham Toshkent shahar YHXBda umrining 30 yilni yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlashga bag‘ishladi.

Eng quvonarlisi shundaki, endilikda



o‘g‘li kapitan Suxrobxon Botirov ham ota-bobosining kasbini davom ettiryapti. U Samarqand shahar IIOFMB 4-son IIB surishtiruvchisi. Bu esa Botirovlar sulolasida burch, sadoqat va adolat tushunchalari avloddan-avlodga o‘tib kelayotganini ko‘rsatadi.

Suxrobxon Botirov o‘z vazifasiga jiddiy, mas’uliyat bilan yondashadi. Har bir ishda qonun ustuvorligini ta’minlash uning shiori. Surishtiruvchi sifatida turli holatlarga xolisona yondashib, haqiqatni aniqlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo‘lida izlanadi. Bu esa otasidan olgan tarbiyasi, oilasida shakllangan qadriyatlarning amaliy ifodasidir.

– Ba’zan kechki payt xizmatdan qaytgach, bir piyola choy ustida o‘g‘lim bilan kasbimiz yuzasidan suhbatlashamiz. Har gal unga: «Hamisha halol bo‘l. Baraka halollikda. Hech qachon mansab yoki vakolat seni o‘zgartirmasin. Odamlar senga ishonadi, chunki sen qonun himoyachisisan. Agar shu ishonchni yo‘qotsang, uni qayta tiklash juda qiyin. Ikkinchidan, sabrli bo‘l. Har kuni turli odamlarga duch kelasan, kimdir nohaq, kimdir adolat izlab kelgan. Har biriga insof yuzasidan munosabatda bo‘l», – deb tayinlayman, – deydi podpolkovnik Saloydinxon Botirov.

Botir ota avlodlari el-yurt tinchlik oso-yishtaligi yo‘lida fidoyilarcha xizmat qilib kelyapti. «Ot izini toy bosar» deganlaridek, bu an’anani kelgusida sulolaning keyingi avlodlari ham davom ettiradi deb umid qilamiz. Ular bu ishning asosida mujassam bo‘lgan insonparvarlik, burchga sadoqat va adolatparvarlik kabi azaliy hamda abadiy qadriyatlarga sodiq qolishlariga ishonamiz.

Umida MAMADALIYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA

Poytaxtimizning Yangihayot tumani IIOFMB Migratsiya va personallashtirish bo‘limi inspektori, katta serjant Tohirbek Husanovning xizmat kuni juda tig‘iz. Odatda, bo‘lim oldida odamlar kutib turgan bo‘ladi. Kimdir yangi ID-karta olish maqsadida, yana kimdir farzandini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kelgan.

Inspektorning vazifasi diqqat-e’tiborli bo‘lishni talab etadi. Hujjatlardagi kichik xato ham katta muammoga aylanishi mumkin. Ba’zan odamlar asabiy, bezovta holda keladi. Shunday vaziyatlarda ham u har bir murojaatchiga bosiqlik, hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Ayniqsa, fuqarolik va ro‘yxat masalalari katta mas’uliyat talab qiladi. Tohirbek hamisha qonun talablarini ham, insonparvarlik tamoyillarini ham birdek hisobga olishga harakat qiladi.

Buni tumanning «Choshtepa» mahallasida yuz bergan bir voqea yaqqol tasdiqlaydi. Yoshi 85 ga kirgan onaxon besh nafar farzandini o‘z hovlisiga ro‘yxatga qo‘ymoqchi edi. Ammo salomatligi yomonligi, yurishga qiynalishi tufayli bo‘limga kela olmasdi. Inspektor uning xonadoniga borib, holatni o‘rgandi, onaxon bilan suhbatlashdi va barcha hujjatlarni joyida rasmiylashtirdi.



Bugungi kunda bo‘limdagi ishlar zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Face ID tizimi orqali ro‘yxatga olish jarayonlari yanada aniq va shaffoflashgan. Biroq yangi tartiblar ayrim fuqarolarda tushunmovchiliklar ham keltirib chiqarmoqda.

– Ba’zilar hali ham eskicha ish



yuritish mumkin, deb o‘ylaydi, – deydi Tohirbek Husanov. – Ammo endilikda fuqarolar shaxsan ishtirok etishi yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan hujjatlar taqdim qilishi lozim.

Shu bois u fuqarolarga yangi qonun va tartib-qoidalarni batafsil tushuntiradi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Zarur hollarda esa fuqarolarning uyiga ham boradi. Zamonaviy planshet yordamida joyida suratga olish, ma’lumotlarni kiritish va rasmiylashtirish imkoni mavjud. Shuningdek, doimiy ro‘yxatga qo‘yishda notarial tasdiqlangan arizalar asosida ham amaliy yordam ko‘rsatadi.

Katta serjant Tohirbek Husanov oilasida mehribon ota va g‘amxo‘r turmush o‘rtoq sifatida qadrlanadi. U farzandlari tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Turmush o‘rtog‘i esa pedagog, ingliz tili fani o‘qituvchisi. Bu oilada ilm, tarbiya va mas’uliyat ustuvor qadriyatlardan sanaladi. Yaqinlarining qo‘llab-quvvatlashi unga xizmatda yanada kuch va g‘ayrat bag‘ishlaydi.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



РАСШИРЯЯ ГОРИЗОНТЫ

Молодежь проявляет особый интерес к изучению языков, осознавая, что это открывает широкие горизонты для познания мира. В академических лицеях МВД Республики Узбекистан данный процесс выстроен с высокой эффективностью под руководством опытных наставников.

Коллектив кафедры изучения языков Бухарского академического лицея МВД состоит из 16 преподавателей. Педагоги по иностранным языкам подтвердили квалификацию международными сертификатами уровня С1, а специалисты по родному и русскому языкам – национальными сертификатами категории А+, В+.

Особое внимание уделяется научному потенциалу кадров. Преподавателю родного языка Дилором Тошевой по результатам защиты диссертации присвоена ученая степень доктора философии по филологическим наукам (PhD). Активную научно-исследовательскую работу ведет и преподаватель английского языка Диляйра Рузиева.

Возглавляет кафедру опытный специалист, автор ряда научных трудов и учебно-методических пособий, доктор философии по филологическим наукам (PhD) Дилфуза Зарипова.

На протяжении последних трех лет наши лицеисты стабильно занимают призовые места на предметных олимпиадах. Победителями и призерами III этапа республиканской олимпиады по узбекскому языку среди первокурсников стали Мафтунабону Зикриёева (1-е место) и Шахинабону Гайбиллоева (2-е место). Среди учащихся вторых курсов лидировали Саидабегим Аннаева, занявшая 1-е место, и Шахнура Тухтамуродова, удостоенная 2-го места.

Качество образования подтверждается также результатами сертификационных экзаменов. В нынешнем учебном году лицеисты получили 105 национальных сертификатов (92 – по родному языку, 13 – по русскому). Впечатляющие успехи демонстрируются и в английском языке: с начала учебного года получено 84 сертификата CEFR и IELTS уровня В2, а учащийся 1-го курса Абдурахмонжон Кудратов получил сертификат IELTS уровня С1.

Успехи лицеистов – стимул для совершенствования мастерства преподавателей, работающих над тем, чтобы знание языков стало для ребят ключом к саморазвитию.

Раъно ХОДЖАЕВА,
педагог.

Бухарская область.

ИККИНЧИ УМР



Умрнинг ўлчовли эканлигини унутмаган инсон ўз ҳаёти давомида эзгу амаллари билан ном қолдиришга интилади. Шу боис у оламдан ўтганидан кейин ҳам ҳамкасблари ва яқинлари қалбида яшайверади. Аббосхон Бузруков ана шундай инсонлардан бири эди.

Андижон вилояти Хўжаобод туманининг Дилкушод қишлоғида туғилиб, вояга етган Аббосхоннинг ёшлигидаги орзуси келажакда ҳуқуқ-тартибот посбони бўлиш эди. Шу мақсадда ўрта мактабни тамомлаб, 1979 йили ҳужжатларини ИИВ Тошкент ўрта махсус милиция мактабига топширди. Мазкур таълим муассасасини муваффақиятли тамомлагач, хизмат фаолиятини Андижон вилояти ИИБда оддий ходимликдан бошлади. Ўз касбига бўлган қизиқиши, тиришқоқлиги, топшириқларни аъло даражада бажариши туфайли тез орада раҳбарият эътиборига тушди. Шундан сўнг вилоят ИИБ махсус бўлимида тезкор ходим, кейинчалик катта тезкор ходим сифатида хизмат қилди. Бир муддат Хўжаобод тумани ИИБ участка катта инспектори, навбатчилик қисми катта навбатчиси лавозимларида ҳам фаолият юритди.

Қозоғистоннинг Қарағанда шаҳридаги ИИВ олий милиция мактабини тамомлагач, Хўжаобод тумани ИИБ бошлиғининг шахсий таркиб бўйича ўринбосари этиб тайинланди. Ушбу лавозимда ишлаган йиллари ходимларнинг маънавиятини юксалтириш, билим ва малакасини ошириш борасида салмоқли ишлар қилди. Шахсий таркибнинг ижтимоий-маиший шароитини яхшилаш, маданий дам олишини ташкил этиш каби масалаларга ҳам алоҳида эътибор қаратди. Туман ИИБ бошлиғининг хизмат бўйича ўринбосари сифатида фаолият юритган даврида эса жиноятчиликка қарши курашиш ва унинг олдини олиш борасида сезиларли натижаларга эришилди. Подполковник Аббосхон Бузруков тизимдаги 30 йилдан ортиқ хизмат фаолияти давомида кўплаб шогирдлар тайёрлади. Уларнинг аксарияти турли раҳбарлик лавозимларида самарали хизмат қилиб, устозидан олган билим ва тажрибаларини амалиётда қўллаб келмоқдалар.

Афсуски, пенсияга чиққанидан кейин Аббосхон акага фарзандлари даврасида ҳузур-ҳаловатда умргузаронлик қилиш насиб этмади. Бешафқат ўлим уни 54 ёшида орамиздан олиб кетди. Ўғли Шерзодбек Бузруков отасининг изидан бориб, ички ишлар органларида турли лавозимларда хизмат қилиб, 2024 йили пенсияга чиқди.

– Дадамнинг ўгитларига амал қилганимиз боис барчамиз ҳаётда ўз йўлимизни топдик, – дейди истеъфодаги подполковник Шерзодбек Бузруков. – Отам гарчи ҳаётдан эрта кетган бўлса-да, ҳанузгача қалбимизнинг тўрида яшаб келмоқдалар. У кишининг умр йўли биз учун доим ибрат мактаби бўлиб қолади.

Ҳа, яхши инсонлар вафотидан кейин эзгу амаллари, одамийлиги туфайли ўзининг иккинчи умрини яшайди. Аббосхон Бузруковнинг ҳаёти бунга ёрқин мисол.

Саминжон ҲУСАНЗОДА,
ўз мухбиримиз.
Андижон вилояти.

CHEMPIONLAR MASKANI







Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik tumanida joylashgan «Akhmad club» nodavlat ta’lim muassasasi nafaqat viloyatga, hatto respublikaga ham ovoza bo‘lgan. Voleybol bo‘yicha tajribali murabbiy Ahmadali Yunusov tashabbusi bilan ochilgan ushbu klub tarbiyalanuvchilari orasidan 3 nafar jahon chempioni, 8 nafar Markaziy Osiyo chempioni, 55 nafar O‘zbekiston chempioni yetishib chiqdi.

Jumladan, 2022-yil Toshkent shahri mezbonlik qilgan o‘rta-maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan «Barkamol avlod» musobaqalarining Respublika bosqichida mazkur klubning voleybolchi o‘g‘il bolalar jamoasi faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Xuddi shu yili Urganch shahrida o‘tkazilgan «Barkamol avlod» musobaqalarining Respublika bosqichida qiz bolalar jamoasi ham g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarildi.

2024-yil ayollar o‘rtasida tashkil etilgan O‘zbekiston chempionatida ushbu ta’lim muassasasi tasarrufidagi «To‘maris malikalari» jamoasi Farg‘ona viloyati qizlar jamoasi sifatida ishtirok etib, 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi va O‘zbekiston chempioni unvoniga ega bo‘ldi. Shu yili jamoa Osiyo chempionatida ham munosib qatnashdi.

O‘tgan yil davomida iqtidorli yoshlar 22 ta nufuzli sport musobaqasida qatnashib, 62 ta sovrinli o‘rinni egallashga muvaffaq bo‘ldilar.

Hozirgi kunda ushbu ta’lim muassasasida 420 nafar o‘g‘il-qiz sportning voleybol, universal jang, dzyudo, milliy kurash, boks, yengil atletika, karate hamda MMA turlari bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda. Quvonarlisi shundaki, tarbiyalanuvchilarning 82 nafari qishloq qizlaridir.

Yaqinda ushbu muassasada unutilmas tadbir tashkil etildi. Farg‘ona viloyati IIB boshlig‘i, polkovnik Ayubxon Rahmatullayev payshanba – yoshlar kuni munosabati bilan mazkur klubda bo‘lib, sportchi yoshlar bilan samimiy muloqot o‘tkazdi. Uchrashuv avvalida klub faoliyati va erishilayotgan yutuqlarni o‘zida aks ettirgan eksponatlar ko‘zdan kechirildi. Voleybolchi yoshlarga velosiped, planshet va boshqa qimmatbaho sovg‘alar topshirildi. Mutasaddilar ishtirokida klubda yaratilgan shart-sharoitlar o‘rganilib, yuqori baholandi. Sport inshootlarining holati va






moddiy-texnik bazasini yaxshilash yuzasidan zarur amaliy yordam beriladigan bo‘ldi.

Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i iqtidorli yigit-qizlarga bilim olishdan to‘xtamaslikka, tinimsiz izlanishga, ajdodlarimizga munosib voris bo‘lishga da’vat etdi. Shuningdek, jinoyatchilik, huquqbuzarlik va turli salbiy illatlardan uzoq yurish kerakligi ta’kidlandi. Voleybol bilan muntazam shug‘ullanib, yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarayotgan yoshlarning yutuqlari e’tirof etildi.

Viloyat sport boshqarmasi rahbarlari hamkorligida tashkil etilgan uchrashuvda jismoniy tarbiya insonni kamolotga eltuvchi, mamlakat obro‘sini yuksaltiruvchi vosita ekanligi alohida ta’kidlandi. Sport bilan do‘stlashgan yoshlarning kelgusi ishlariga omad va zafarlar yor bo‘lishiga tilak bildirildi. Tadbirda yoshlar ham so‘zga chiqib, o‘z taklif va mulohazalarini bildirdilar.

– Bugungi muloqot bizni yangi-yangi marralar sari ruhlantirdi, – dedi klub tarbiyalanuvchisi, xalqaro universiada chempioni Elnora Akramova. – Viloyat IIB rahbariyati taklif va murojaatlarimizni tinglab, bizni hamisha qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanligini bildirdilar. Bu uchrashuv jamoadoshlarimizga katta motivatsiya berdi. Kelgusidagi musobaqalarda yanada zafarli odimlarimiz bilan bizga bildirilgan yuksak ishonchni, albatta, oqlaymiz.

Ma’lumot uchun aytish zarurki, mazkur klub rahbari Ahmadali Yunusov voleybol bo‘yicha O‘zbekiston qizlar terma jamoasida murabbiylik faoliyatini ham olib boradi. Yana bir e’tiborli jihati shundaki, mazkur klub tarbiyalanuvchilaridan 6 nafar qiz va 3 nafar o‘g‘il bola turli yosh toifasidagi O‘zbekiston voleybol milliy terma jamoalarining a’zolari sanaladi.

Ahmadali Yunusov Farg‘ona viloyati IIBning erkaklar va ayollar voleybol terma jamoalarini musobaqalarga tayyorlashda ham murabbiy sifatida o‘zining uslubiy yordamini berib kelyapti. Uning boshchiligida viloyat IIB jamoalari 2 marta Ichki ishlar vaziri kubogi sohibiga aylanishdi. Yaqinda jonkuyar murabbiyning tashabbusi bilan uyushmagan qishloq yoshlarini sportga jalb etish orqali ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida Uchko‘prik tumanidagi «Begabod» MFY hududida 2 ta mini futbol maydoni qurib, foydalanishga topshirildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.



Inson hayotini ilm, adolat va davlatga xizmat qilishga bag‘ishlasa, uning umri ulug‘ ma’no kasb etadi. Bu uch qadriyatning har biri o‘zicha muhim. Ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish har kimga ham nasib etavermaydi.

ZABARDAST OLIM, ZAHMATKASH PEDAGOG

Bunga muvaffaq bo‘lish insonni jamiyat va davlat uchun foyda keltiradigan shaxsga aylantiradi. Ustozimiz yuridik fanlar doktori, professor Shuhrat Fayziyev aynan shu yo‘lni tanlagan, umrini ilmga, adolatning ustuvorligiga va Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga bag‘ishlagan.

Fidoyi olim, avvalo, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash, qonunchilikni takomillashtirish, yangi-yangi yuridik adabiyotlar yaratish va nashr etish, yuqori malakali yurist kadrlarni tayyorlash borasida samarali faoliyat olib bordi. Uning ilmiy tadqiqotlari, o‘quv qo‘llanmalari, monografiya va darsliklari nafaqat yuridik fanning rivojiga, balki milliy qonunchilikning takomillashuviga, huquqiy davlat qurilishining amaliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Professor Shuhrat Fayziyevning ilmiy-pedagogik faoliyati davlat boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qilish idoralari uchun yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash, qonunchilikni takomillashtirish va norma ijodkorligining samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan.

Ustoz 1991-yildan Toshkent davlat yuridik universitetida faoliyat olib boradi. U minglab bo‘lajak yuristlarga saboq berib, ularni amaliyotga yo‘naltirgan, malakali kadrlar qilib yetishtirgan, yurisprudensiya sohasida ilmiy maktab yaratgan olimdir. Shuhrat Hasanovich bugungi kunda TDYU Tadqiqot markazi rahbari sifatida huquq sohalarini yanada rivojlantirish yo‘lida xizmat qilib kelmoqda.

Shuhrat Fayziyev 2008–2012-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti direktori sifatida muhim ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirdi. U mamlakatimizda qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirish sohasida juda ko‘plab tahliliy materiallarni tayyorlagan. Olim qonunchilik tashabbusi subyektlari bilan ilmiy-amaliy hamkorlik qilgan. Ularning faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan ta’minlash va samaradorligini oshirishga ko‘pgina xizmati singgan. Ayniqsa, qonun loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazishdek g‘oyat murakkab va keng qamrovli ilmiy hamda amaliy ko‘nikmalarni talab etadigan muhim jarayonlarda uning rahbarligidagi ilmiy jamoa juda samarali faoliyat ko‘rsatdi.

Shuhrat Fayziyev ekologiya huquqi, yer huquqi, agrar huquq, parlament huquqi, saylov huquqi, norma ijodkorligi va yuridik texnika fan sohalari bo‘yicha mutaxassis. U, xususan, saylov qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha bir qator muhim takliflarni tayyorlashda faol ishtirok etgan, saylov huquqi masalalariga bag‘ishlangan ilmiy va uslubiy adabiyotlarning muallifi hamda soha ekspertlaridan biridir. Shu tariqa saylovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, saylov jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, mamlakatimizda demokratik jarayonlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, professor Shuhrat Fayziyev 1993–1994-yillarda IIV Akademiyasida ekologiya huquqi fanidan saboq bergan. Bundan tashqari, IIV Akademiyasi professor-o‘qituvchilari, yuridik fanlar doktorlari, professorlar Nuriddin Normatov, O‘tkir Muhamedov, Dilshod Karimov bilan yaqin hamkorlik qilgan.

Yaqinda 1-darajali Adliya maslahatchisi, yuridik fanlar doktori, professor Shuhrat Fayziyev tavalludiga 60 yil to‘ldi. Mana 35 yildirki, u qizg‘in ilmiy-pedagogik faoliyat bilan band. O‘tgan davr mobaynida zabardast olim yurisprudensiya fanining rivojiga, malakali mutaxassislar tayyorlashga va davlat huquqiy tizimini takomillashtirishga salmoqli hissa qo‘shdi. Uning ta’limini olganlar, yuzlab shogirdlari bugungi kunda mamlakatimizning turli sohalarida professional yuristlar sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqdalar.

Zahmatkash pedagog, fan fidoyisi va mohir murabbiy Shuhrat Fayziyevning ulkan ilmiy merosi, bebaho pedagogik tajribasi yosh olimlar uchun chinakam o‘rnak, ibrat maktabidir. Fursatdan foydalanib, ustozimizga davlat va ta’lim xizmatidagi mas’uliyatli faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Omon OKYULOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori.

ОЧЕРК

ҒАНИЖОН ОТАНИНГ ИККИ «ҚАДРДОНИ»



Субҳидам

Тонг отишини ҳеч кузатганмисиз? Бетакрор манзара. Ҳатто тун ойдин бўлган кезлари ҳам тонг отиши арафасида атроф бирдан зимистонга чўмади. Кейин эса секин-аста теварак атроф ёриша бошлайди. Ғанижон ака табиатнинг бу илоҳий мўъжизасини ҳар галгидек инжа туйғулар билан кузатди. Ширин уйқуда ётган фарзандларини безовта қилмаслик учун оҳиста ҳовлига чиқди.

Ажабо, унинг босган қадамларига монанд зулмат ортга чекина бошлади. Шу пайт хаёлчан кузатувчининг қулоғига орқа ҳовлидан шивир-шивир чалинди. Ғанижон ака юзида ним табассум билан тонг ҳавосидан сархуш бўлиб, икки «қадрдони» томон йўл олди. Булар – унинг ҳаётидаги қувончли ва азобли кунларига, ота-онаси ва аждодлари кечмишига гувоҳ бўлган, икки асрни қаритган, аммо ҳамон ўзлари навқирон икки туп азим тут дарахти эди. Шукр, яна бир мунаввар тонгга етказганига! У бугун қадрдонлари билан навқирон йигитлик даврларини, билаги кучга, юраги оташга тўлган дамларини ёдга олмоқчи...

Ота-онасидан эрта етим қолиб, болалар уйида тарбияланган, акаси ўқишга кетгач, болалик билан эрта видолашиб, бирданига улғайиб қолгани... Буларнинг ўзи бир дунё. Бироқ у бугун умрининг мазмунига айланган севимли касбининг Учқўрғон туманида кечган илк даврини эслагиси келди...

Учқўрғонга «сургун»

...Ўшанда у собиқ иттифоқ Давлат хавфсизлик қўмитасининг Тўрақўрғон туманидаги масъул ходими эди. Талабчанлиги, қатъияти ва қонун устуворлигини таъминлаши билан ҳамкасблари орасида ҳурмат топган бўлса-да, бу қайсидир юқори лавозимли амалдорга ёқмади. Номзоди республика ИИВга тавсия этилган бўлишига қарамай, ўша амалдорнинг «марҳамати» билан, Учқўрғонга «сургун» қилинди.

Бугун ўша амалдордан миннатдор. Чунки айнан Учқўрғонда у ҳақиқий жамоасини, содиқ дўстларини ва оилавий бахтини топди. Раҳбар сифатида ишни туман ИИБ биносини янгилашдан бошлади.



Майор Ғанижон Маҳмудов 1926 йил 13 январда Норин туманида туғилган. Ҳуқуқшунос. 1944–1952 йилларда Давлат хавфсизлик қўмитаси тизимида хизмат қилган. 1953–1969 йилларда Учқўрғон тумани ИИБ, 1969–1970 йилларда Гулистон шаҳар ИИБ ҳамда 1970–1974 йилларда Норин тумани ИИБ бошлиғи лавозимларида фаолият юритган. Фидокорона хизматлари учун бир қатор медаллар, кўкрак нишонлари ва фахрий ёрлиқлар билан тақдирланган.

Эсида, Соли деган кимсанинг қилмишлари сабаб кекса онаси қанча кўз ёши тўкканди. Карим баттолнинг номардлигига чидай олмаган Салим отадек покдомон инсон эл олдида тиз чўкиб кечирим сўраганди... Адашганларни тўғри йўлга солгунча қанчалик қийналарди. Бироқ қайсидир гуноҳкорнинг яқинлари фарзанди тўғри йўлни топгани учун ёки шогирдларининг ота-онаси миннатдорлик билдириб дуо қилса, бор чарчоқлари унутилиб кетарди...

«Эл алқаган мелиса сизми?»

1966 йилнинг 29 августи. Учқўрғон гидроузели кўпригининг очилиш маросимига ташриф буюрган республикамиз раҳбари Шароф Рашидов уни бағрига маҳкам босиб: «Ўша эл алқаган Ғанижон мелиса сизми? Энди сизни ўзим билан Тошкентга олиб кетаман. Сизнинг ўрнингиз – марказда», – деди.

Бу эътибордан Ғанижон ака қанчалар қувонганини тасаввур қилиш қийин эмас. Бироқ у Тошкентга кетмади, кета олмади. «Ҳамма марказга кетаверса, чекка ҳудудлар нима бўлади? Олис туманлардаги халқ осойишталигини, хотиржамлигини ким таъминлайди?» – деди ўзига.

Ўша пайтларда ички ишлар органлари нафақат қонунбузарликларга қарши курашар, балки ободончилик учун ҳам масъул эдилар, эрта баҳордан кеч

кузгача деҳқонлар билан ҳамнафас бўлардилар. Ғанижон аканинг ташаббуси ва саъй-ҳаракатлари билан туманда ариқлар қазилди, кўприклар, мактаблар, болалар боғчалари қурилди, эскилари таъмирланди. Табиатан яшилликни севгани боис иқлимга мос мевали ва манзарали дарахтлар, ноёб гулларини эктирди.

Бугунгача унинг хайрли ишларини ёд этиб, ҳақига дуо қилишади. Бундан руҳи шод бўлаётгани аниқ.

Ғанижон Маҳмудов бошчилигидаги туман ИИБ ходимларининг фидойиларча хизмати туфайли ҳудудда жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликлар сезиларли даражада камайди. Бу республика ИИВ раҳбарияти томонидан эътироф этилиб, юксак баҳоланди.

Жосуснинг режаси барбод бўлди

У кечки таомдан кейин ўғил-қизларининг дарс тайёрлашини бир-бир назорат қилди. Ишдан чарчаб келганингда аёли, фарзандлари билан дилдан мулоқот қилиш энг зўр роҳат-да. Айниқса, кичик қизининг гап-сўзлари, топқирлиги унга жуда ёқади. Бугун ана шу кенжаси негадир бошқача кайфиятда: думалоқ кўзларида ҳам ҳайрат, ҳам ҳаяжон. Катталари билан суҳбатлашиб бўлгач, қизалоғини ёнига чақирди.

– Она қизим, яхшимисан? Нимадандир ранжиганга ўхшайсан. Ёки адашдимми?

– Акромга дадаси Сочидан антиқа ручка олиб келган экан. Қопқоғини айлантирса, ичида кема сузиб юраркан. Уни неча кундан бери болаларга кўрсатиб мақтанаётганди. Ўша ручка бугун йўқолиб қолди. Акром қўшнимиз Собиржонни ручка ўғрисига чиқарди. Унга бошқа болалар ҳам қўшилди.

– Бекорга ўртоқларинг ҳам қўшилмагандир, бир сабаби бордир-да.

– Йўқ, дадажон. Собиржон унақа бола эмас. Индамай юргани учун шундай деб ўйлашади. Олдин ҳам бир-икки марта шунга ўхшаш воқеа бўлганди. Собир бечора олмаганини исботлаб беролмаганди. Бу сафар синф раҳбаримиз Зоя Билоловна ҳам болаларга қўшилиб Собиржонни



уришди. Менинг жаҳлим чиқиб кетди. Ҳаммага қараб ручкани Собир олмаганини, ким олганини кўрганимни айтдим. Ўқитувчимиз ҳам, синфдошларим ҳам кимлигини айтишимни сўради. Мен эса ҳар қалай Собир олмаган, олган бола қайтариб бериши кераклигини, бўлмаса ҳамманинг ичида уялиб қолишини айтдим.

– Ўзи сен ростдан ҳам ким олганини кўрганмидинг?

– Йўқ, лекин Акромнинг пинжига кириб, ўзини мулойим кўрсатиб юрадиган Насим бор-ку, мен негадир ўша олган деб ўйладим.

– Ие, бу қизиқ гап бўлди-ку, кўрмаган бўлсанг, нега уни айблаяпсан?

– Билмасам, дада, доим кўзи аланг-жаланг юради. Кимнингдир пинжига кириб олса, тамом, ўшанинг ё китобига чизилган, ё нимасидир йўқолган. Собиржонни ўғрига чиқаришгандан кейин кузатганман.

– Йўғ-э, қандай?

– Ўзим шундай кузатганман-да. Билмасам, мен ручкани шу олган деб ўйлаяпман, – Муқаддас шундай дея дадасига тикилди.

– Ажойибсан-да, қизим. Бировнинг олмаган нарсасини олди деб айтиш гуноҳ. Кейин ёлғон гапириш ҳам. Яна Насим олганини кўрмай туриб айтишинг хато. Ким қилган бўлса ҳам топилади, ўйланма.

– Лекин, дада, мен Собир эмас, Насим олган дейман барибир...

– Оббо, қизим-ей, – деди ота ва қизини бағрига маҳкам босди...

Болалар уйқуга кетгач, аёли Шаҳзода кенжаси Муқаддаснинг сергаклиги, тийраклиги ҳақида гапириб, бу дадасидан ўтганлигини айтиб қолди. Айни шу пайт Ғанижон ака хаёлига бугун ёғ заводида кўрган, ҳар ёққа аланг-жаланг қараб юрган ишчи келди. У ёққа ағанади, бу ёққа ағанади, қани кўзига уйқу келса. Аёлини безовта қилгиси келмай секин ташқарига йўл олди. Ногоҳ бир фикр хаёлига келди ва ўзининг хонасига қайтди. Бурчакда турган кийим жавонини очди. Ундан бир оз унниққан фуқаролик кийимларини олди...

Ғанижон ака нонушта қилгач, ҳар кунгидан анча эрта ишга йўл олди. Идорада навбатчининг ҳисоботини тинглади. Масъул ходимлар ўз вақтида хизмат жойига келгач, уларнинг кунлик иш режаларини бир-бир кўриб чиқди. Аҳолининг хотиржамлигини, тинчлик-осойишталигини таъминлаш, жиноятчиликка қарши муросасиз курашиш муқаддас бурч эканлигини уларга эслатди.

* * *

Ёғ заводидаги одатдаги иш куни. Ҳар ким ўз вазифаси билан банд. Заводдан чиқадиган тонна-тонна ёғлар одамларнинг қозонига тушади. Қанча инсонларнинг ризқ-насибаси бор бу ерда. Шундай улкан масъулият зиммасида бўлган ишчилар баъзан иш вақти тугаганини ҳам билмай қоладилар. Янги келган ишчи билан қадрдонлашиб қолган Зоҳиджон ҳам куннинг кеч бўлганини пайқамай қолди.

Йигити тушмагур жуда қизиқувчан чиқиб қолди. Ҳамма нарсани суриштиради. Заводнинг ишини миридан-сиригача билмоқчилигини, бу ерда Зоҳиджондай ишчилар билан ишлашдан хурсандлигини



айтиб чарчамайди. Бу Зоҳидни ҳам қувонтириб юборди. Йигитни янада ҳайратлантириш мақсадида завод ишини кенгайтириш бўйича келгуси режалар ҳақида гапириб берди. Йигит қизиқувчанлигидан ташқари, меҳнаткаш ҳам экан. Ишхонага ҳаммадан олдин келади, кечда эса ҳаммадан кейин кетади. Шу тариқа кунлар ўта бошлади.

***

Ғанижон ака ишдан қайтгач, кенжаси Муқаддас олдига югуриб борди-да, ҳовлиқиб деди:

– Дада, дадажон. Барибир, менинг айтганим тўғри чиқди.

– Қайси айтганинг?

– Ҳалиги йўқолган ручкани Насим олган дегандим-ку. Ростдан ҳам ўша олган экан. Синглиси Гулчирой дарс пайти: «Ака, ручкангиз уйда қолиб кетибди», – деб олиб кириб берди. Насим ҳамманинг ичида уялмай: «Кеча топволдим», – дейди. Собиржон бўлса ақалли: «Менга туҳмат қилгандинглар, ана топилди-ку!» – ҳам демади. Менинг жаҳлим чиқиб Зоя Билоловнага Акром ҳам, Насим ҳам Собирдан кечирим сўрасин дедим. Собиржон бўлса шарт эмас дейди. Мен Насим олганини кўрмаган бўлсам ҳам сезгандим. Кўрдингиз, ҳақиқий қизингизман-да.

– Оббо сезгир қизим-ей, ҳақиқий менинг қизимсан-да, қойил!

«Яхши ҳам сендай сезгир қизим борлиги. Сенинг сезгирлигинг орқали қанчалик ёвуз, даҳшатли маккорона тузилган режанинг – ёғ заводини портлатишнинг олди олинди-ку». У кейинги гапларни қизига дилида айта-айта, уни бағрига босди.

Заводда Зоҳиджоннинг пинжига кириб олган йигит аслида чет эл жосуси экан. Қаранг, заводга ҳаммадан олдин келиб, ҳаммадан кейин кетишининг, ҳар бир ишга қизиқишининг асли сабаби умуман



бошқа ёқда экан. Ғанижон ака фуқаролик кийимини кийиб, зимдан йигитни кузатди. Шу тариқа унинг яшаш манзилини ўрганиб, кечалари уйида қандайдир чизмалар билан бандлигини сезиб қолди.

Шубҳалари бежиз эмас экан. Дарҳол тезкор гуруҳни чақирди. Ҳамма ҳайрон, айниқса, Зоҳиджон. Чунки унга бу йигит жуда ёқиб қолган эди. Ё тавба, пинжига кириб олишидан аслида бошқа мақсад бор экан-да. Кимнинг ҳам хаёлига келибди бир чет эл жосусининг заводни портлатиш режаси борлигини. У заводнинг чизмасини шундай аниқлик билан чизгандики, унча-мунча архитектори ҳам буни эплолмасди. Жосуснинг жиноий мақсади фош этилиб, тегишли жазо тайинланди.

Жаҳонгир ТЎХТАСИНОВ,
Раънохон МАТКАРИМОВА.
Наманган вилояти.

(Суратлар оилавий архивдан олинган)



ВИДЕТЬ СЕРДЦЕМ



Затаив дыхание, юноша вдохновленно рисует… Под тихий скрип карандаша рождаются штрихи, превращающие чистый лист в удивительные образы.

Зулпыкар Жумабаев – учащийся 2-го курса Каракалпакского академического лицея МВД Республики Узбекистан. Он обладает редким талантом портретиста.

В своих работах Зулпыкар раскрывает самую суть человека, перенося на бумагу не просто черты лица, а внутренний мир. Ему удается наполнить портрет подлинной глубиной и индивидуальностью. В каждом штрихе чувствуется внимание к деталям, а в запечатленном взгляде – живые эмоции. В портрете он передает то, что сложно выразить словами: усталость, надежду, радость или грусть.

Интерес к рисованию появился у него еще в юном возрасте. Тогда это были простые наброски – первые попытки изобразить родных и друзей. Он изучал работы известных мастеров, практиковался, экспериментировал со стилем. И главное – никогда не переставал наблюдать за людьми

Однокурсники часто становятся героями его портретов. Кто-то позирует специально, а других он рисует незаметно, стараясь уловить неподдельные чувства. Многие признаются, что в его работах они видят те черты своей личности, которые раньше оставались в тени.

Зулпыкар только начинает свой творческий путь. В его планах – продолжать развитие, осваивать новые техники и однажды организовать персональную выставку. Глядя на него, понимаешь: истинное искусство рождается рядом с нами.

Роза ЯЗАЛИЕВА,
педагог.
Республика Каракалпакстан.



MEHR – HAMMA UCHUN TUSHUNARLI TIL

«Roki» – Sharqiy Yevropa ovcharkasi. Uni o‘rgatish, salomatligini, jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish Sirdaryo viloyati IIB JXX JTSB kinologiya bo‘linmasi 2-kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, safdor Hayitbek Obidov zimmasida. Hayitbek tajribali mutaxassis. Shu paytgacha «Roki»dan tashqari to‘rtta itni tarbiyalab, xizmatga o‘rgatgan.

– Bilasizmi, itlarda ham tuyg‘u bor, – deydi Hayitbek biz bilan suhbatda. – Ular ham mehrni, qahrni his etishadi, goho xafa bo‘lishadi, goho esa quvonchi ichiga sig‘may yugurishadi.

«Roki» sharoitga tez moslashdi. Olti oylik bo‘lganida Hayitbekka o‘rganib qoldi. U nima istashini, nima yoqmayotganini egasiga bildira oladigan darajaga yetdi. Lekin veterinar shifokor itni tekshiruvdan o‘tkazib, jismoniy va taktik mashg‘ulotlar o‘tkazishga hali erta degan xulosaga keldi. Ammo jonivor is olishi uchun juda yoshligidan o‘rgatilmasa keyin kech bo‘lishi mumkin edi.

Hayitbek Obidov oddiy mashg‘ulotlarni o‘yin tarzida o‘tishga ruxsat oldi. It yaxshi ko‘radigan go‘sht va ozuqalarni muayyan joyga bekitib qo‘yar, «Roki»dan esa ularni topish talab qilinardi. Jonivor ziyrak edi. Kolbasalarni topish unga cho‘t emasdi. Keyinroq paket ichiga solinib, hid chiqarmasligi uchun skotchlangan oziq-ovqatlarni ham topishni o‘rgandi. Bir yoshlarga kirganida it asosiy mashg‘ulotlarga o‘tdi.

Uni inson oyoq kiyimining hidlarini farqlashga o‘rgatish uchun murakkab mashqlar o‘tkazilar, bundan it toliqar, ba’zan asbiylashardi. Shunday paytda unga dam berilar, hovliga qo‘yib yuborilardi.

Hayitbek itning alohida qobiliyati borligini payqab qoldi. Shunda u to‘rt oyoqli ko‘makchisiga ratsiya o‘rnatishga qaror qildi. Maqsad inson kira olmaydigan tor, pastqam joylar, tuynuklar, xashak yoki yerto‘lalar tag qismiga it kirib ketganida, masofadan turib uni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lish edi.

Dastlab it ratsiyaning shovqinli ovozidan g‘ashlandi. Uni bir necha bor tishlab olib tashladi. Qayta-qayta mashg‘ulotlar, itni rag‘batlantirishlar o‘z samarasini bera boshladi. It ratsiya orqali «yugur», «yot», «o‘tir», «quv», «izla» buyruqlarini to‘liq bajara boshlaganida Hayitbek rosa xursand bo‘ldi. U «Roki» bilan IIV Kinologiya markazida olti oy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tab qaytdi. Bu esa ikkalasining birgalikdagi mahoratini oshirishda o‘ziga xos maktab vazifasini bajardi.

«Roki» hozirda ko‘plab jinoyatlarni fosh etishda mahoratini namoyish qilyapti. O‘tgan yili Mirzaobod tumanining «Mirzacho‘l» mahallasida sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyatining ochilishi bunga misol bo‘la oladi.

Mahalla katta avtotrassaning bo‘yida joylashgan, keng dalalarga tutashib ketgan. Ana shu yo‘ldagi daraxtzorlar oralig‘ida mahallada yashovchi qariya qirqqa yaqin



qo‘yini qo‘raga qamab boqayotgan edi. Iyul oyining o‘rtalarida kechasi sakkiz bosh eng sara qo‘ylari yo‘qoldi. Ertalab qo‘radagi qo‘ylari kamayganini bilib qolgan otaxon zudlik bilan tuman IIBga murojaat qildi.

Voqea joyiga tergov-tezkor guruhi tarkibida safdor Hayitbek Obidov ham «Roki» bilan birga yetib keldi. It qo‘ra atrofida rosa aylanadi. Is olishi qiyin edi. Boisi qo‘ylarning egasi ertalab uning atrofida ko‘p yurgan, izlarni bosib tashlagandi. Lekin it baribir is oldi. U to‘satdan ariq yoqalab yugurib ketdi. Uch yuz metrlar yurgach, katta trassa tomonga burildi. Jonivor to‘xtagan joyda yengil mashinaning loyda qotgan izlari ko‘rinib turardi. Shinaning izlari «Damas» yoki «Labo» rusumidagi avtomobilga xos degan xulosaga kelindi. It o‘z vazifasini bajargandi.

Ushbu ma’luomtlar asosida katta yo‘lga o‘rnatilgan turli kameralardagi yozuvlar tekshirila boshlandi. Kun oxiriga kelib o‘nga yaqin ushbu rusumdagi avtomobillar ajratib olindi. Ular kimga tegishliligi, qayerga ketganligi, nima yumush bilan yo‘lda yurganligi o‘rganildi. Shunda uchtasidan qattiq gumon qilindi.

Surishtiruvlar jarayonida Farg‘ona viloyati Rishton tumanidagi fuqaroga tegishli «Labo» tekshirildi. Ushbu mashina egasi va uning qo‘shnisi qo‘y oldi-sotdisi bilan shug‘ullanishlari ma’lum bo‘ldi. Bu esa gumonni yanada kuchaytirdi. Qo‘ylar uning og‘ilxonasidan topildi, hali ularni sotishga ulgurmagan ekan. Xodimlar itning qobiliyatiga yana bir bor qoyil qolishdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.

ЦИФРОВАЯ СРЕДА

ПРЕДУПРЕДИТЬ, ЧТОБЫ ОБЕЗОПАСИТЬ



Учащийся колледжа в Бектемирском районе Ташкента решил купить через соцсети «iPhone 11». Цена была заманчивой – всего 1,1 млн сумов. Продавец запросил 30% предоплаты, и юноша перевел 330 000 сумов. Сразу после транзакции «магазин» исчез. Сценарий, ставший классикой обмана…

Противодействие преступлениям в IT-сфере – важнейшее направление деятельности ОВД. Статистика сурова: за прошлый год в столице зарегистрировано свыше 16 тысяч киберпреступлений, а ущерб превысил 2 триллиона сумов.

Для коренного улучшения ситуации принимаются системные меры. Обновляется техническое оснащение подразделений по борьбе с киберпреступностью. Наращивается кадровый потенциал: наряду с существующими программами, открывается новое направление образования – «Киберправо», что позволит комплектовать оперативно-следственные группы профильными специалистами.

Однако успех борьбы зависит и от бдительности самих граждан. Ведь злоумышленники умело пользуются излишней доверчивостью людей, пробелами в их цифровой грамотности.

Специалисты посещают махалли, учебные заведения, организации, где информируют о типовых схемах кибермошенничества. При этом подчеркивается, что сетевые махинаторы совершенствуют свою тактику. Так, сегодня чаще всего встречаются следующие сценарии обмана:

Фейковые вакансии. Например, предложения заработка в Telegram за «лайки на товары». Вас просят оплатить «обучение», после чего «работодатель» исчезает.

Звонки «Службы безопасности Click/Payme». Помните: сотрудники платежных систем, банков не звонят через мессенджеры и не запрашивают коды.

Дипфейки и ИИ. Мошенники научились подделывать голоса. Если «сын» или «брат» просит денег в сообщении, перезвоните ему лично.

Ложные субсидии. Распространяются сообщения о «выплатах», цель которых – выманить данные ваших банковских карт.

Распространение файлов с расширением «.apk». Файлы под видом «обновлений», «архива с фото» дают мошенникам полный доступ к вашему смартфону и счетам.

Важно знать!

Не сообщайте СМС-коды и реквизиты карт посторонним.

Не переходите по сомнительным ссылкам.

Не скачивайте файлы «.apk».


Установите двухэтапную аутентификацию в аккаунтах.

Загружайте приложения только из официальных источников.

Ваша бдительность – лучшая защита!

Зарина ИСАЕВА,
подполковник.
Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

PATROLS THE CITY



A ROLE MODEL AT WORK AND AT HOME

At around 23:00 last night, an inspector from Group 1 of the Navoi regional DIA public order and traffic safety inter-district patrol post detachment, who was on duty in the centre of the Karman district, private sergeant Azizbek Mahmudov, hearing the sound of a disturbance coming from a shop at the stop, rushed to the scene. The inspector, having chased down the man fleeing the shop, established that he had been in a drunken altercation with the shop assistant and customers, and had absconded with an alcoholic drink without paying for it. During the investigation, the detained individual was identified as a 42-year-old citizen who had been wanted on suspicion of theft. Thus, Azizbek Mahmudov, through his swift action, solved the crime on the spot.

Azizbek Mahmudov began his career in the internal affairs in 2002 and has been ensuring public safety in the ranks of the patrol service since 2023. With nearly 25 years of experience, he serves as a role model for his colleagues and younger staff.

– I love my job and am pleased that I am able to help people, he says.

The junior sergeant's children have also chosen their father's profession. His eldest son, Aslbek Nusratov, is in his third year at the Ministry of internal affairs academy, while Asadbek Nusratov attends the Ministry of internal affairs navoi academic lyceum. This shows that Azibek Mahmudov is a role model not only in his service but also in his family life.

Translated by
Munavvar RASHIDOVA,
docent.





YO‘L QURILISHI:

ILM VA ISHLAB CHIQARISH UYG‘UNLASHGANDA

Yo‘l sifati ko‘p yillik muammolardan. Bir qor-yomg‘ir yog‘sa bas, haydovchilar mashinani tekis joyni topib haydashiga to‘g‘ri keladi. O‘ydim-chuqurlar, yoriqlar, notekis qoplamalar uning vaqtini ham, asabini ham kemiradi. Eng ayanchlisi, yo‘l-transport hodisalariga sabab bo‘ladi.

Nega yo‘llarni sifatli qurish va saqlab turish shu qadar mushkul? Nima uchun ta’mir qilingan yo‘l qisqa fursatda yana asl holiga qaytadi? Nahotki, fan bu sohada to‘liq amaliy yechim bera olmasa?

Shu kabi savollar bilan biz yo‘l qurilishi sohasidagi nomdor olimlardan biri – Jizzax politexnika instituti kafedra mudiri, professor In’omjon G‘aniyevga murojaat etdik.

– In’omjon G‘ulomovich, yaqinda Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi Jizzax viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi rahbariyati va olimlar o‘rtasida muloqot tashkil etildi. Suhbatimiz avvalida ushbu uchrashuv mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida to‘xtalsangiz.

– Bu safargi muloqot yo‘lsozlarning o‘z tashabbusi bilan tashkil etilganini alohida ta’kidlashni istardim. Albatta, ilgari ham soha vakillari bilan olimlar o‘rtasida uchrashuvlar, fikr almashuvlar, hamkorlik bo‘lib turgan. Lekin bu galgi uchrashuv, aytish mumkinki, mutlaqo amaliy ruhda, «chiroyli gap» emas, tayyor yechim talab qiladigan darajada jiddiy o‘tdi.

Bizdan zamonaviy, raqamli, tezkor ishlaydigan mexanizmlar bo‘yicha aniq takliflar so‘raldi. Shuningdek, respublika bo‘yicha yo‘llarning Milliy reyestrini yaratish masalasi muhokama qilindi. Bu – tasavvur qilinganidan ham keng ko‘lamli va mas’uliyatli ish: o‘rtacha 5 yil vaqt talab etiladi.

Ammo ishni darhol katta hajmda boshlash emas, avval Jizzax viloyatida bir tuman miqyosida pilot loyiha sifatida mahalliy reyestr yuritish rejalashtirilgan. Bu nimani beradi? Eng avvalo, respublika miqyosida barcha yo‘llarni bir vaqtda, bir tizim orqali kuzatish va nazorat qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu harakat xavfsizligini ta’minlash uchun ham ahamiyatli.

Yana bir muhim tashabbus: mahalliy darajada har bir yo‘l xo‘jaligi xodimining ish jarayonini tezkor monitoring qilish, ish vaqtidan unumli foydalanishni ta’minlash uchun sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tizimni joriy etish bo‘yicha taklif berildi. Bu – ish vaqtini «qog‘ozda» emas, amalda samarali tashkil qilish, yo‘qotishlarni kamaytirish, inson resurslarini oqilona boshqarish demakdir.

– Mutaxassis sifatida sohadagi eng og‘riqli muammolarni sanab o‘tsangiz.



– Muammolar talay. Ularning eng dolzarblaridan biri shuki, 2020-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamiz avtomobil yo‘llarida mavjud 15000 dan ortiq ko‘prikning 3200 tasi egasiz edi. Ya’ni, bu qadar ko‘p ko‘prik na hokimiyatga, na muayyan tashkilotga rasman tegishli. Ular ta’mirtalab ahvolga kelsa, harakat ishtirokchilari uchun xavf tug‘dirishi tabiiy hol.

Kadastr hujjatlari yo‘q obyektlar ham kam emas. Hujjatsiz obyekt – mas’uliyatsizlik degani. Shu sabab 2021-yildan boshlab egasiz ko‘priklarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ular uchun mas’ul organni tayinlash bo‘yicha ishlar boshlangan.

Yana bir masala: tibbiyot va qurilishda xususiy sektorga keng yo‘l ochilishi bu sohalarni sezilarli darajada rivojlantirdi. Yo‘l xo‘jaligida ham shunga o‘xshash islohot zarur. Agar O‘zbekistonda xususiy yo‘llar qurilishi va ekspluatatsiyasi haqidagi yangiliklar amalda to‘liq ishlab ketsa, yo‘l qurish va saqlash xarajatlarining katta qismi davlat zimmasidan soqit bo‘ladi, raqobat sabab sifat oshadi, ish jarayonlari tezlashadi, mas’uliyat kuchayadi.

Bu esa harakat xavfsizligining ta’minlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

– Yo‘llar ta’mirlangach, qisqa muddatda yana ishdan chiqishining asosiy sababi nima?

– Bu savol juda ko‘p beriladi va albatta, noroziliklar tug‘diradi. Lekin hamma aybni faqat yo‘lsozga ag‘darish to‘g‘ri emas, tabiiy-iqlim omillari ham juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Rossiya va O‘zbekistonda bir xil texnologiyada va o‘xshash sharoitda qurilgan yo‘llarning xizmat muddati farq qilishi mumkin. Sababi: O‘zbekiston iqlimi keskin kontinental – qishda sovuq, yozda qattiq issiq. Bu esa qoplamaning tezroq «eskirishi»ga olib keladi.

Oddiy misol: yozda havo +40° bo‘lganida, asfalt yuzasi +70°S gacha qiziydi. Ayni shu paytda og‘ir yuk ortilgan transport









harakatlansa, asfaltda «gormoshka»ga o‘xshash deformatsiyalar paydo bo‘ladi. Endi tasavvur qiling: fasllar kesimida bir sutkada harorat 20 darajagacha o‘zgarishi mumkin. Bunday sharoitda qoplamaga tushadigan bosimni tasavvur qilish qiyin emas.

Sifatli yo‘l qurilishida eng muhim element – bitum. U neftni qayta ishlashdan olinadigan mahsulot bo‘lib, demak, ko‘p qismi importga bog‘liq. Rossiya, Qozog‘iston, Turkmanistondan bitum eksport qilinadi. Yana bir nozik jihat: neftni qayta ishlash qaysi texnologiya asosida bo‘layotgani ham bitum sifatini belgilaydi. Xomashyo va texnologiya qanchalik innovatsion bo‘lsa, bitum ham shuncha barqaror va samarali bo‘ladi. Shuning uchun yo‘l sifati – faqat yo‘lsozning mehnati emas, ko‘p omilli tizim natijasi.

– Mutaxassislar tayyorlash masalasi ham sohaning muhim bo‘g‘ini, shundaymi?

– Albatta. O‘zim ham shu institutda 1987–1993-yillarda o‘qiganman.

Bugun institutimizda mobil sinov-laboratoriya mavjud. Islom taraqqiyot bankining qariyb 300 ming yevro miqdoridagi granti evaziga keltirilgan uskunalarimiz bor. – Bunday jihozlar hatto viloyat yo‘l tashkilotining o‘zida ham to‘liq mavjud emas. Shu bois yo‘l sifati va materiallarni tekshirishda bizning ko‘chma laboratoriya xizmatlaridan foydalaniladi. Yiliga 1 mlrd so‘mgacha xizmat ko‘rsatiladi.

Kadrlar masalasida ham Jizzax viloyati Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi bilan kelishuvlarimiz bor. Magistrantlar uchun «1+1» dual o‘quv dasturi ishlab chiqilgan. Bu – nazariyani amaliyot bilan birga yuritib, tayyor mutaxassisni haqiqiy ish sharoitida shakllantirish demak.





– Mavjud muammolarni hal etish uchun qanday ilmiy takliflaringiz bor?

– Yuqorida avval bitumning hal qiluvchi ahamiyati haqida aytdik. Ammo u juda qimmat. Dunyo tajribasida bitum o‘rnini bosadigan muqobil bog‘lovchi moddalar bor. Masalan, dengiz bo‘yi mamlakatlarida ba’zan bunday modda dengiz karamidan olinadi. Lekin jo‘g‘rofiy joylashuv sabab bu tajriba bizga to‘liq mos kelmaydi. Shuning uchun jamoamiz dukkakli mahsulotlardan bitum o‘rnini bosuvchi modda olish ustida izlanishlar olib bormoqda. Bu – qayta tiklanuvchi, ekologik toza va mahalliy xomashyoga asoslangan yechim bo‘lishi mumkin.

Shuningdek bitumni iqtisod qilish va xizmat muddatini uzaytirish uchun so‘ndirilgan ohak toshni kukun holida bitumga qo‘shish bo‘yicha tajribalar ketmoqda. Agar natija muvaffaqiyatli bo‘lsa, yo‘l qurilishi arzonlashadi, qoplamaning barqarorligi oshadi.

Yana bir yangilik: 120 yilgacha o‘chmaydigan bo‘yoq ustida ishlayapmiz. Hozirgi yo‘l chiziqlari ko‘pincha bir yilga yetmay rangini yo‘qotadi. Biz esa tabiatdan olinadigan rang moddasini laboratoriya sharoitida sinab ko‘rdik va uning bir asrdan ziyod vaqt davomida xossasini saqlashi mumkinligi aniqlandi. Axir, ajdodlarimiz qurgan obidalardagi bo‘yoqlar oftobga, shamolga dosh berib, 5 asrdan beri turibdi-ku. Demak, kimyoviy emas, tabiiy manbalarga tayangan bo‘yoqlar bo‘yicha tadqiqotlar juda istiqbolli.

– Sifatli yo‘l qanday bo‘lishi kerak?

– Yo‘l faqat ravon va keng bo‘lishi bilan «ideal» bo‘lib qolmaydi. Unda haddan ziyod yo‘lchiroq, «yotiq politsiyachi» va boshqa to‘siqlari ko‘paysa, harakat sekinlashadi, vaqt yo‘qotiladi. Eng yaxshi yo‘l – tirbandlik hosil qilmaydigan, harakat oqimini uzib qo‘ymaydigan yo‘l.

Poytaxtda Yangi O‘zbekiston massivida barpo etilayotgan ko‘p qavatli ko‘priklar ana shunday imkoniyat bermoqda. Jizzaxda ham piyodalar uchun yer osti yo‘llari qurilayotgani – yaxshi qadam. Yaqinda Jizzax shahrini Sharof Rashidov tumani Yangi O‘zbekiston massivi bilan bog‘laydigan ko‘prik qurilgani ham infratuzilmani yaxshilashga xizmat qilmoqda. U qudratliligi jihatidan respublikamizda 5-o‘rinda turadi. Xulosa shuki: yo‘l – tinimsiz harakatni yoqtiradi, harakat uzilsa, tizim charchaydi.

Har qanday qurilishda «3 foiz» xalqaro standarti hisobga olinadi: kelgusi 20 yilda aholi va avtomobillar soni o‘rtacha 3% o‘sishi prognoz qilinadi. Shu nuqtada men bir fikrni qo‘shimcha qilmoqchiman: amaldagi qurilish standartlarini ilg‘or jahon tajribalari asosida qayta ko‘rib chiqish, zarur joylarda yangilash vaqti kelgan.

O‘z muxbirimiz
Muqaddas SAPAROVA
suhbatlashdi.



Inson qachon biror tashkilot yoki idoraga murojaat qiladi? Qachonki boshiga tashvish tushsa, adolatsizlikka duch kelsa. Shunday ekan, har qanday murojaat inson qalbidan chiqqan nido bo‘lishi mumkin. Murojaatlar jamiyatdagi muammolarning oynasi, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi hamdir.

QALBDAN CHIQQAN NIDO

Qashqadaryo viloyati IIB va uning hududiy bo‘linmalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari alohida e’tiborga olinib, uni o‘rganib chiqish amaliyoti yanada takomillashtirilyapti. Murojaatlarga e’tibor kuchaygani sari, inson erkinliklari, haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada yaxshilanmoqda.

Buni Qamashi tumani IIB misolida ko‘radigan bo‘lsak, tashkiliy bo‘linmaning murojaatlar bilan ishlash guruhiga joriy yilning o‘tgan 4 oyi mobaynida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 283 ta murojaat kelib tushdi. Ularning 85 foizi asosli bo‘lgani uchun qanoatlantirildi. Mahallalar kesimida tahlil qilinganda, murojaatlar 15 foizga kamaygani ayon bo‘ldi.

«O‘rta dara» mahallasida yashovchi fuqaro M. Suvonov o‘z murojaatida tumanda yashovchi T.N. temir quvur va tunuka mahsulotlarini yetkazib berish uchun 52 million so‘m pullarini olib, va’dasini bajarmay kelayotganligini bayon etgan. Uning murojaati tuman IIB huzuridagi tergov guruhi tomonidan o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, gumon qilinuvchiga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanildi. Hozirda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

E’tiborli tomoni, murojaatlarning 7 tasi jamoat xavfsizligi va tartibini saqlash bilan bog‘liq. Bundan ko‘rinadiki, tuman aholisining Vatan tinchligi, taraqqiyoti, el osoyishtaligiga daxldorlik hissi, fuqarolarning huquq va majburiyatlari borasidagi dunyoqarashi kengaygan.



Murojaatlar ichida mol-mulk va pul mablag‘larini olib qo‘yish yoki qaytarmaslik, tergovga qadar tekshirish, shaxsning hayoti va salomatligiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlar haqidagilari ham anchagina. Yana bir qancha murojaatlar yo‘l-transport hodisalarini rasmiylashtirish va ularni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq. Shuningdek, mol-mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga, plastik kartadagi pullarni talon-toroj qilish va yo‘qotilgan buyumlarni topishga oidlari ham bor. O‘z navbatida, murojaatlarni o‘rganish jarayonida ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolarning buzilgan haq-huquqlarini tiklashga alohida e’tibor qaratmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, har bir fuqaro murojaati orqali nafaqat o‘z muammosiga yechim izlaydi, balki jamiyatda adolat qaror topishiga hissa qo‘shadi. Shu bois murojaatlarga munosabat – bu shunchaki xizmat vazifasi emas, balki inson taqdiriga daxldor mas’uliyatdir.

Elmurod QILICHEV, kapitan.
Sodiq RAHIMOV, o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

HARBIYLAR HAYOTIDA MUSIQA



Musiqa san’ati juda qadimda paydo bo‘lgan. Uning mohiyati insonning taassurotlari, fikr va his-tuyg‘ularning tovushlar, ohanglar orqali ifodalanishidir. Musiqa inson hayoti davomida unga doimo hamroh. Musiqa sadolari ostida qilingan mehnat unumli, musiqa tinglab olingan dam maroqli bo‘ladi. Kishilarning bayramlari, to‘y-tomoshalari kuy-qo‘shiqsiz o‘tmaydi.

Umuman, musiqa kishiga zavq bag‘ishlaydi. Ohanglar ritm va uyg‘unlikning qalbga imkon qadar chuqur kirib borishiga xizmat qiladi, uni go‘zallik bilan to‘ldiradi, insonga nafosat tuyg‘usini his etishga imkon beradi.

Yunon shifokori, ilmiy tibbiyot asoschilaridan biri Gippokrat musiqa sadolarining inson organizmiga ta’sirini qayd etib o‘tgan. Maxsus kuylar yordamida qadim zamonlarda tabiblar tutqanoq va bosh og‘rig‘ini davolashgan. Bugungi kunda olimlar past tovushda qo‘yilgan musiqa ishchanlikni o‘rtacha 10 foizga oshiradi deb ta’kidlashadi.

Endi musiqa terapiyasi va asboblari borasida to‘xtaladigan bo‘lsak, inson a’zolari va tizimlar o‘rtasidagi aloqaga e’tibor qaratishimiz kerak. Misol uchun, torli asboblar yurak-qon tomir tizimiga hamda o‘pkaga, saksafon buyrakka, fleyta jigar va o‘t pufagiga, baraban umurtqa pog‘onasiga, klavishli asboblar qizilo‘ngach, oshqozon va ichaklarga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

O‘zbekiston hududida musiqa san’ati juda qadimdan rivojlanib kelmoqda. Buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur davrida urushda g‘alaba qozongan sarkardalarga maxsus sovg‘alar qatorida nog‘ora taqdim qilingan. Bu mazkur san’atning harbiy sohada ham naqadar qadrlanganini tasdiqlaydi. Temuriylar saroyida musiqachilardan iborat maxsus guruhlar faoliyat olib borgan.





Ularning rahbari «mehtar» deb atalib, hukmdorlar tomonidan tayinlangan va saroyda katta nufuzga ega bo‘lgan. Bugungi kunda Turkiyada harbiy dirijyorlar «mehtar» deb ataladi. Bundan xulosa qilib bemalol aytishimiz mumkinki, harbiy dirijyorlikka aynan O‘zbekiston hududida asos solingan.

Harbiy orkestrga Buxoro amirligida ham katta e’tibor qaratilgan. Said Olimxon o‘n uch yoshida otasi Abdulahadxon tomonidan uch yilga davlatni boshqarish san’atini va harbiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun Sankt-Peterburgga yuboriladi. 1896-yilda u Rossiyadan qaytishida o‘zi bilan harbiy musiqachilardan iborat orkestr jamoasini Buxoro amirligiga olib keladi.

Buxoro amirligida XIX asr boshlarida harbiy orkestrlar «bolobomchi» deb nomlangan. Bu «balanddagilar, tomdagilar» degan ma’noni anglatgan. Musiqachilar, ayniqsa, harbiy musiqachilar, har doim yuksak hurmatga sazovor bo‘lgan. Ularning vazifasi harbiy harakatlar paytida askarlarning jangovar ruhini ko‘tarish edi.

Abdulahadxon va Said Olimxon hukmronligi davrida armiyani isloh qilish boshlandi. Ushbu jarayonda harbiy musiqachilarga alohida e’tibor qaratildi. Ular harbiy forma kiygan va milliy musiqa asboblari, shuningdek Yevropacha uslubdagi cholg‘ular bilan «qurollangan» edilar. Bolobomchilarning formasi yiliga uch marta almashtirilardi. Dirijyorda rus qilichi va Berdan to‘pponchasi bo‘lardi.

Shu o‘rinda Buxoro amirligida harbiy musiqachilarning maoshi boshqa askarlarnikidan yuqori bo‘lganini ta’kidlash joiz. XIX asr boshlarida oddiy askar 20 tanga, bolobomchi 35 va dirijyor *(mujur)* 60 tanga olgan. Chunki urush chog‘ida bolobomchilarning hayoti katta xavf ostida bo‘lardi. Boisi, harbiy yurishlar paytida ular bayroqdorga ergashib, oldingi saflarda yurishardi.

XIX asrning oxirlariga kelib, orkestrlar har bir harbiy qismda tashkil etila boshlandi. Ular harbiy mashqlar, bo‘linmalarni ko‘rib chiqish, xorijiy amaldorlarning tashriflari,





amaldorlarni tayinlash, amirning qishki qarorgohi – Arkdan chiqishi va qaytishi hamda boshqa rasmiy marosimlar paytida marshlar ijro etishardi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘sha davrdagi harbiy orkestrlar Buxoro amirligining chinakam faxri bo‘lgan va harbiy kiyim, ijro mahorati hamda harakatchanligi jihatidan yevropalik hamkasblaridan qolishmagan.

Buxoroning so‘nggi amiri Said Olimxon fortepianoni juda yaxshi chalar edi. Uning o‘g‘li Abdulkabir Azimiyning eslashicha, bir kuni otasi Afg‘oniston podshosi Omonulloxonning Kobul mehmonxonasida nishonlayotgan tavallud ayyomiga tashrif buyuradi. Bazm davomida amir Omonulloxon mehmonlar ko‘z o‘ngida fortepiano chaladi. So‘ngra navbatni Said Olimxonga beradi. Amir Olimxon fortepianoni shunchalar mohirlik bilan chaladiki, musiqa oxirida Omonulloxon uni bag‘riga bosib: «Eng oliy tuhfani menga siz qildingiz!» – deydi.

Fortepiano chalgan odamni dastlab tanimagan g‘arb elchilaridan biri uning kimligini bilgach, qo‘llaridan o‘pib, shunday degan: «Men qo‘lingizni Buxoro amiri bo‘lganingiz uchun emas, balki fortepianoni shunchalar mahorat bilan chalganingiz uchun o‘pdim. Fortepiano chalishni qayerda o‘rgangan edingiz?». Said Olimxon esa unga: «Sankt-Peterburgda o‘rganganman. Ammo mashqlarni Buxoroda qilganman», – deb javob qaytargan ekan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining barcha kuch ishlatar tuzilmalarida harbiy orkestrlar samarali faoliyat ko‘rsatadi. Ular shaxsiy tarkibni ruhlantirish, san’at va go‘zallik olamiga oshno etish, Vatanga muhabbat, burchga sadoqat ruhida tarbiyalashga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Muqimjon MAHMUDOV,
IIV Orkestr xizmati boshlig‘i –
bosh dirijyor, podpolkovnik.

DALILLAR TILGA KIRGANDA...

To‘rtko‘l tumanidagi bozorda joylashgan do‘konlardan birida o‘g‘rilik sodir etildi. Holat yuzasidan tuman IIBga murojaat etgan jabrlanuvchi do‘konidan 8 dona uyali telefon apparati va ma’lum miqdorda pullari o‘g‘irlanganini bildirdi.

Voqea joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruh tarkibida bo‘lgan katta ekspert, kapitan Ravshanbek Reyimbayev har bir detalni sinchiklab o‘rganishni boshladi. U tekshirishlar jarayonida o‘g‘ri do‘kon ichkarisiga kirish uchun sindirgan oynaning bo‘laklarida do‘kon egasidan boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan qo‘l barmoq izlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladi. Ushbu barmoq izlari «Papilon» bazasida tekshirilgach, dastlabki gumon qilinuvchining shaxsi ma’lum bo‘ldi.

Xufyona sodir etilgan jinoyatni «issiq izida» ochish xodimdan, xususan ekspertdan o‘ta sinchkovlikni talab qiladi. Jinoyat joyidagi ko‘z ilg‘amas zarralar, izlar va boshqa ashyoviy dalillar tilsiz bo‘lsa-da, mohir mutaxassis qo‘lida voqea tafsilotlaridan so‘zlaydi, jinoyat «qulfi»ni ochishda asosiy «kalit» vazifasini o‘taydi.

To‘rtko‘l tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, kapitan Ravshanbek Reyimbayev ham o‘z kasbining ustasi bo‘lgan ana shunday mohir mutaxassislar sirasiga kiradi. U yosh bo‘lishiga qaramasdan qator jinoyatlarni fosh etishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Bunda ustozlari podpolkovniklar Mubarek Nizamatdinov, Amir Gaynutdinovlardan o‘rgangan amaliy ko‘nikmalari juda ham asqatmoqda.





Shu o‘rinda lavhamiz qahramonining faoliyatidan yana bir misol keltiraylik. Tuman hududida ketma-ket sodir etilgan 7 ta o‘g‘rilikning deyarli barchasida avtomashina ichidagi turli buyumlar va unga tegishli ehtiyot qismlar olib ketilayotgan edi. Ammo hech qanday ashyoviy dalil topishning imkoni bo‘lmayotgandi.

So‘nggi holatda tajribali ekspert voqea joyini diqqat bilan ko‘zdan kechirayotib, avtomashinadan uncha uzoq bo‘lmagan yerdan haydovchiga tegishli hujjatlarni topdi. Ularning birida qo‘l barmoq izlari qolganini aniqladi. Ushbu ashyoviy dalillarni avtomatlashtirilgan daktiloskopik taqqoslash tizimi yordamida tekshirish natijasida o‘g‘riliklarni sodir etib kelayotan yosh yigit qo‘lga olindi.

– Kriminalistika yo‘nalishi sinchkovlikdan tashqari katta mehnatni, sabr-toqatni ham talab qiladi. Ustozlarimiz ta’kidlaganidek, bir qarashda oddiy, arzimasdek ko‘ringan detal ham vaqti kelganda jinoyat ishidagi tugunni yechishi mumkin, – deydi kapitan R.Reyimbayev.

Darhaqiqat, tuman hududida sodir bo‘layotgan jinoyatlarni fosh etishda R. Reyimbayevning munosib hissasi bor. Xususan, joriy yilning o‘tgan davri mobaynida u 71 marotaba voqea joyiga chiqib, 135 ta xulosa bergan. Buning natijasida esa 20 ga yaqin jinoyat tez orada ochilishiga erishilgan. Shuningdek, u hududda boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelyapti.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

INSPEKTOR BOTIROVNING BIR KUNI

«Onajon, tezroq pul yuboring…»

Men qiynalib qoldim…Nima bo‘lganini keyin tushuntiraman...»

Ertalab Shovot tumani «Guliston» mahallasida yashovchi ayol telefoniga kelgan xabarni o‘qib, qattiq xavotirga tushdi. U xabarni qayta-qayta o‘qidi. «Nima korhol bo‘ldi ekan?» degan tashvishli o‘yda ich-etini yerdi. Yana «Rostdan bolammikan yoki kimdir meni aldayaptimi?» deya shubhaga ham borardi. Lekin o‘g‘liga qo‘ng‘iroq qilib, buni so‘rash xayoliga kelmadi.

Bir oz o‘ylab turib, mahallada xizmat olib boradigan profilaktika inspektoriga qo‘ng‘iroq qildi. Ko‘p o‘tmay ayolning xonadoniga hududiy profilaktika inspektori, kapitan Manguberdi Botirov yetib keldi.

– Assalomu alaykum, – dedi u ichkariga kirishi hamono xushmuomalalik bilan. – Nima gap?

Ona hayajon bilan uyali telefonini unga uzatib so‘radi:

– Iltimos, mana buni o‘qing… o‘g‘limdan ekanmi? Pul so‘rayapti… Nima qilay?

Inspektor xabarni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Qayta o‘qidi. So‘ng:

– Onajon, bu firibgar bo‘lishi ham mumkin. Hozir bunday holatlar ko‘p uchrayapti, – dedi. – Avvalo o‘g‘lingiz bilan bevosita bog‘lanib ko‘raman.

Ammo inspektorning qo‘ng‘irog‘iga ayolning o‘g‘li javob bermadi. Shunda Manguberdi Botirov ayolga tayinladi:

– Haliroq unga yana qo‘ng‘iroq qilaman. Ungacha siz hech kimga plastik kartangiz ma’lumotlarini bermang. Xabarda ko‘rsatilgan plastik karta raqamiga pul ham o‘tkazmang.

Inspektor onaning o‘g‘liga ikki soat ichida yana bir necha bor qayta-qayta qo‘ng‘iroq qildi. Nihoyat ayolning o‘g‘li javob berib, bunday xabar jo‘natmaganini aytdi. Shu tariqa telefondagi sms xabar yolg‘onligi aniqlandi. Ona yengil nafas olib, inspektorga:

– Rahmat… bolam, rostini aytsam, juda qo‘rqib ketgandim, – dedi.

– Onajon, yana bunday holatga duch kelsangiz, albatta, xabarni jo‘natgan yaqinlaringizga qo‘ng‘iroq qilib ko‘ring – deya inspektor maslahat berdi.

«O‘zimni to‘xtata olmayapman, uka…»

Inspektor qabuliga kelgan ayolning muammosini diqqat bilan eshitgach «Demak, Baxtiyor aka menga bergan va’dasining ustidan chiqmabdi» – degan xulosaga keldi. Keyin unga bugun albatta, xonadoniga kirib, turmush o‘rtog‘i bilan gaplashishini aytdi.

Manguberdi Botirov tushdan keyin o‘sha xonadonga yo‘l oldi. U eshikni ochib, ichkariga kirar ekan, xona ichiga ko‘z yugurtirib, oiladagi vaziyat yaxshi tomonga o‘zgarmaganini anglab yetdi. Shunday bo‘lsa ham muloyimlik bilan so‘radi:

– Baxtiyor aka, ahvolingiz qanday?

– Yaxshiman, – dedi xonadon egasi, lekin negadir ko‘zini olib qochdi. Endi inspektor ovozini biroz jiddiylashtirdi:

– Bu holat davom etsa, faqat sizga emas, oilangizga ham ta’siri yomon bo‘ladi. Siz bilan bu haqda ko‘p gaplashganmiz-ku. Oxirgi marta «Endi takrorlanmaydi», – deb va’da bergan edingiz. Hozir aniq qaroringizni ayting, nima qilamiz?



Biroz sukutdan keyin xonadon egasi chaynalib dedi:

– Bilaman… lekin o‘zimni to‘xtata olmayapman.., uka.

– To‘xtatish mumkin. Mutaxassislar bor. Yordam berishadi. Agar xohlasangiz, birga murojaat qilamiz.

Bir necha soniyadan so‘ng Baxtiyor aka boshini qimirlatdi:

– Xo‘p.., roziman.

Shundan so‘ng profilaktika inspektori uning roziligi asosida Xorazm viloyati narkologiya dispanseriga murojaat qildi. Mutaxassislar tomonidan Baxtiyor aka tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ixtiyoriy ravishda davolanishga yo‘naltirildi. Bu esa nafaqat bir inson, balki butun boshli oila taqdiriga befarq bo‘lmaslikning yana bir amaliy ko‘rinishi edi.

Lavhamiz qahramoni 2018-yilda Urganch davlat universitetini tamomlagan. Ichki ishlar organlarida 2019-yildan buyon xizmat qilib kelmoqda. Uning ish uslubi faqat nazorat emas, balki avvalo aholi bilan muloqot.

– Sutkaning istalgan paytida inspektorga murojaat qilsak, hamisha yordam beradi, – deydi mahalla ahli.

Bu so‘zlar Manguberdi Botirovga bo‘lgan ishonchni, hurmatni anglatadi, albatta. «Guliston» mahallasida profilaktika ishlari xonadonma-xonadon o‘rganish, aholini ogoh qilish va amaliy yordam ko‘rsatishga qaratilgan. Buning natijasida sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldi olinyapti. Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda internet orqali firibgarlik holatlari ko‘paygani sababli, inspektor bu borada tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirmoqda. Chunki tinchlik-osoyishtalikka murojaatlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, to‘g‘ri maslahat berish orqali erishiladi.

Nilufar JABBOROVA,
o‘z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



KAMPIRTEPA
YODGORLIGINING SIRLARI

Diyorimiz hamisha buyuk sarkardalar diqqatini o‘ziga tortgan. Xususan, Aleksandr Makedoniskiy (Makedoniyalik Iskandar) miloddan avvalgi IV asr o‘rtalarida bu hududni bosib olgan va Oksiana Iskandariyasi shahriga asos solgan.

Oksiana Iskandariyasi *(hozirgi Kampirtepa xarobalari)* – Surxondaryo viloyatida Oks *(Amudaryo)* daryosining o‘ng qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan noyob ellinistik port shahar bo‘lgan. Kampirtepa shaharchasi mashhur arxeolog, akademik Edvard Rtveladze tomonidan 1972-yilda Amudaryo vodiysidagi arxeologik yodgorliklarni tekshirish chog‘ida ochilgan. Rtveladze boshchiligidagi arxeologik qazishmalar shuni tasdiqladiki, manzilgoh yunon arxitekturasi, zardushtiylik va buddizm xususiyatlarini uyg‘unlashtirgan ellinistik madaniyatning muhim markazi hisoblangan. Bu shahar miloddan avvalgi IV asr oxirida qurilgan va milodiy I asr boshlarigacha mavjud bo‘lgan.

Shahar tarixiy yilnomalarda ko‘plab marotaba tilga olingan, ammo uning joylashuvi yuzlab yillar davomida sir bo‘lib kelgan edi. 2019-yilda akademik Rtveladze bir necha o‘n yillik qazish ishlari va yozma manbalarni tahlil qilgandan so‘ng Amudaryoda Makedoniyalik Iskandar asos solgan afsonaviy Oksiana Iskandariyasi aynan Kampirtepa shahri ekanini isbotlab berdi. Akademik o‘z xulosalarini 1972-yildan beri to‘plangan arxeologik materiallarga, yozma manbalar va kartografik ma’lumotlarga tayanib asoslaydi. «Shaharcha kichkina va ixcham edi. Qadimgi yunon ibodatxonasi, qal’a, darvoza, Amudaryo sohiliga tushadigan ayvonni topdik. Ellinizm davriga oid dastlabki kulolchilik parchalari ham shu yerdan topilgan», – deb yozgan Edvard Rtveladze.

Yodgorlikning joylashishi haqidagi faraz, eng avvalo, Oks bo‘ylab g‘arbdan sharqqa 400 metrdan ortiq cho‘zilgan kemalar to‘xtash joylari bo‘lgan port shahar o‘lchamlari bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, bu yerda mustahkam darvozali qal’a, ko‘cha va ibodatxonadan iborat bo‘lgan shaharsozlik tuzilmasi, savdo shoxobchalari va hunarmandchilik *(kulolchilik)* ustaxonalari joylashgan.

Kampirtepa Termizdan 30 km masofada joylashgan O‘zbekiston hududidagi eng qadimiy arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi.

Bu yerda aholining daryodan kechib o‘tishi uchun Burdago‘y aholi punkti qurilgan va u bir vaqtning o‘zida mehmonxona hamda bojxona vazifasini bajargan. Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab ketayotgan savdogarlarning dam olishlari, tovarlarini olib o‘tishlari, ibodat qilishlari va safarga chiqishlari uchun yuk tashish punkti faoliyat yuritgan.



Kampirtepa qal’a devori atrofi ulkan xandaq – dushman o‘tolmasligi uchun gir aylanasiga qazilgan uzun chuqurlik, minora va uning atrofi bilan o‘ralgan «quyi shahar»dan iborat bo‘lgan. Arxeologlar bu yerda erta ellinizm, yunon-baqtriya va kushon davrlarining yaxshi saqlanib qolgan madaniy qatlamlarini topishdi. Ko‘plab topilmalar va shaharcha me’morchiligining o‘ziga xos xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, Kampirtepada asrlar davomida turli dinlar vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Bu yerda zardushtiylar, buddaviylar va qadimgi yunon xudolariga e’tiqod qiluvchilar yashashgan.


Shaharda Kushon podshohi Kanishka I davri *(milodiy II asrning birinchi choragi)* da xalqaro savdo va madaniyatni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Shunday qilib, yunon-baqtriya an’analariga hurmat tariqasida qurilgan qal’a devorining tashqi tomonida buddaviylik ziyoratgohi topildi. Uning poydevoridan o‘sha paytda zardushtiylik va buddizm dinlarining hukmron xudolari bo‘lgan Budda va Axura Mazdaning xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan Buddaning terrakota shaklidagi haykallari ham chiqqan.

Shuningdek, turli davrlarga oid tangalar, qadimiy baqtriya papiruslari topilgan. Qizig‘i shundaki, Kanishka I hukmronligi davrida tangalarda Buddadan tashqari, 30 dan ortiq turli dinlarning xudolari tasvirlangan, bu o‘sha davrda buddizm falsafasida paydo bo‘lgan diniy bag‘rikenglikning yana bir dalilidir.

Surxondaryo viloyati o‘zining qadimiy tarixi, noyob arxeologik yodgorliklari, muqaddas qadamjolari va go‘zal tabiati bilan yuqori sayyohlik salohiyatiga ega. Oksiana Iskandariyasining ochilishi Surxondaryoning sayyohlik salohiyatini yanada rivojlantirdi. Bu tarixiy yodgorlikni ko‘rish, shahar tarixi haqida ko‘proq ma’lumot olish uchun ko‘plab chet ellik sayyohlar kelishadi.

Bu mamlakatimizga bevosita iqtisodiy foyda keltirish, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy aholi daromadlarining oshishiga imkon beradi. Viloyatda arxeologik va tabiiy yodgorliklardan tashqari, nomoddiy madaniy boyliklar ham mavjud. Baxshichilik, Boysun san’ati, musiqa, raqs, matolar – bularning barchasi Surxondaryoni o‘ziga xos maftunkor hududga aylantiradi.

G‘ayratulla SHUKUROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi.



Yasunari KAVABATA
(1899–1972)
Yapon yozuvchisi,
Nobel mukofoti sohibi

ANOR
(hikoya)

Kuzning shamolli tunida anor daraxti barglari to‘kilib chiqdi. Barglar daraxt tanasi atrofida toza yer qoldirib doira yasagan edi.

Deraza tavaqalarini ochgan Kimiko anorning yalang‘och shoxlariga ajablanib boqdi. Barglar aylana bo‘lib to‘kilgani, shamol ularni har tarafga sochib yubormagani ham unga g‘alati tuyuldi.

Daraxt tepasidagi birgina anorga ko‘zi tushdi.

– Oyijon, qarang, qanday ajoyib anor! – dedi Kimiko hayajonini yashirolmay.

– Chindan ham... Men bo‘lsam uni unutgan ekanman, – deb oyisi daraxtga qaradi-yu, darhol oshxonaga qarab ketdi.

«Men bo‘lsam uni unutgan ekanman». Oyisining bu so‘zlari Kimikoga ularning naqadar yolg‘iz ekanini eslatdi. Ochiq ayvon ro‘parasida anor pishib yetilsa-yu, hatto shu ham yodlaridan ko‘tarilgan bo‘lsa, ularning turmushi qay ahvolda bo‘lishi mumkin, axir?!

Yarim oycha bo‘ldi, jiyani mehmonga kelgandi. U anorga ko‘zi tushgan zahotiyoq daraxtga osildi. Tap tortmay daraxt tanasiga tirmashib chiqayotgan yetti yashar bolakayga Kimiko sarxush boqdi.

– Eng tepasida yana bitta kattasi bor! – shodon qichqirdi u.

– Ko‘ryapman, – dedi bola. – Uni uzsam, tusholmay qolaman-da.

«Chindan ham, ikki qo‘lida anor bo‘lsa, qanday tushadi?», – o‘yladi Kimiko va kulib qo‘ydi. Ajoyib bola-da!

Bu bolakay kelmaganida ular anorni butunlay unutishar ekan. Shundan keyin oyisi va Kimiko bugun ertalabgacha anor haqida umuman eslashmagandi.

Jiyani kelganida eng tepadagi anor barglar orasida ko‘zga tashlanmasdi, bugun esa moviy osmon tegrasida qip-qizil bo‘lib yonib turibdi.

Kimiko boqqa kirdi va uzun bambuk yog‘och bilan anorni uzib oldi. Meva pishib ketgan va hatto yorilgan ekan: aftidan, undagi kuch-quvvat ichiga sig‘may tashqariga intilardi. Kimiko anorni ayvon poliga qo‘ydi. Yorilgan joyidagi anor donalari quyosh nurida yaltirardi.

Kimiko yorilmagunga qadar uzib olmagani uchun o‘zini anor oldida gunohkor sezdi.

U ikkinchi qavatga ko‘tarildi-da, shosha-pisha tikishga tutindi. Soat o‘nlar chamasi pastdan Kenkichining ovozi eshitildi. Eshik tambalanmagan bo‘lsa kerak, to‘g‘ri boqqa o‘tdi va uning tez-tez gapirayotgani eshitila boshladi.

– Kimiko, Kimiko, pastga tush! Kenkichi keldi, – baland ovozda chaqirdi oyisi.

Qiz shoshganicha ignani ipdan oldi-da, yostiqchaga sanchdi.

– Kenkichi, frontga jo‘naguningizga qadar siz bilan uchrashuvga rozilik berishimni so‘rayverib Kimiko hol-joniga qo‘ymadi, yoningizga borishi noqulay bo‘ldi, o‘zingiz esa bir kelib-ketishga vaqt topmadingiz. Qani, kiring, kira qoling, – yalinardi oyisi.

U Kenkichining uzoqroq qolishini xohlardi, birga tushlik qilishni taklif etdi, lekin Kenkichi, aftidan, juda shoshilardi.

– Afsus... – dedi bo‘shashib oyisi. – Unda, hech qursa, manavi anordan yeb ko‘ring. O‘z bog‘imizdan.

Oyisi Kimikoni yana chorladi.

Qiz zinapoyalardan tushib kelgunga qadar Kenkichi undan ko‘z uzmadi. Nigohida shunchalar besabrlik bor ediki, Kimiko chalishib ketishiga oz qoldi, so‘nggi zinalarni zo‘rg‘a bosib tushdi.

Kenkichining ko‘zlari yashnab ketdi. Qo‘llari titradi va anorni tushirib yubordi.

Nigohlari bir lahza to‘qnashdi, ikkalasining ham lablariga tabassum indi. Kimikoning yanoqlari qizardi. Kenkichi shoshilinch o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

– O‘zingni ehtiyot qil, Kimiko! – dedi u.

– Siz ham, Kenkichi, – shivirladi Kimiko, lekin bu payt yigit oyisi tomon o‘girilgan va xayr-xo‘shlashayotgan edi.

Kenkichi ketdi, Kimiko bo‘lsa yana ancha vaqt eshik tomon qarab turdi.

– Nega buncha shoshilmasa bu Kenkichi? Hatto shunday ajoyib anorni ham tatib ko‘rmadi-ya. Bu qanaqasi bo‘ldi?! – dedi oyisi. U ayvon qirrasiga egildi-da, qo‘lini uzatib, yerda yotgan anorni oldi.

Kenkichining ko‘zlarida yosh miltillaganini Kimiko sezgan vaqtda u anorni ikkiga bo‘lmoqchi bo‘lib noqulay harakat qilgan va mevani yerga tushirib yuborgandi. Anor yerga tushdi, lekin yorilmadi.

Oyisi anorni yuvib, ayvonga olib keldi.

– Ol, Kimiko, – mevani qiziga uzatdi u.

– U iflos-ku, axir, – ortga tislanib norozilik bildirdi qiz. So‘ng birdan qip-qizarib ketdi-da, shosha-pisha qo‘lini cho‘zdi.

Anorning yorilgan joyini, chamasi, Kenkichi tishlab ulgurgandi.

Oyisi yonida turarkan, anordan voz kechishni beadablik deb bildi. O‘zini loqayd ko‘rsatgan bo‘lib mevani labiga tekkizdi. Og‘zi nordon ta’mni tuydi. Shira ich-ichiga kirib borganday va uning quvonchli tuyg‘ulariga armon ko‘lkasi soya tashlaganday bo‘ldi.

Oyisi Kimikoning holatini sezmadi va ayvonni xotirjam tark etdi.

Ko‘zgu yonidan o‘tayotib, o‘ziga qarab qo‘rqib ketdi.

– Voy, rang-ro‘ying qursin! – xitob qildi u. – Sochimni taramay, shu holda Kenkichini kuzatibman. Yaxshi bo‘lmadi!

Ko‘zgu oldida o‘tirib sochiga taroq soldi.

– Otang olamdan o‘tganda, – ohista so‘zladi oyisi, – men uzoq vaqt sochimni tarashga qo‘rqib yurdim... Taroq sochimga tegdi deguncha beixtiyor o‘yga cho‘mib, o‘tmishni eslab ketardim. Xudda dadang yonimda-yu, soch tarashdan to‘xtashimni kutib turganday tuyulardi. Qo‘rqqanimdan qaltirab ketardim.

Oyisida otasidan qolgan ovqatni yeb qo‘yish odati bo‘lgani Kimikoning esiga tushdi.

Uni birdan o‘tmishni qaytarib bo‘lmaydi, degan tuyg‘u chulg‘ab oldi, ayni chog‘da shunday baxt-saodatni his etdiki, ko‘zlaridan yosh qalqdi.

Biror narsa isrof bo‘lishiga oyisi toqat qilolmas edi. Otasidan qolgan taomni yeb, tozalab qo‘yish odati ham shundan. Kenkichi yeyishni ep ko‘rmagan anorni yeb qo‘yishini Kimikodan so‘ragani boisi ham shu bo‘lsa kerak.

Kutilmaganda tuygan pinhona shodmonligi uchun Kimiko oyisi oldida o‘zini noqulay his etdi.

Lekin xayolidan hech narsani kechirmagan Kenkichi bilan xayrlashayotib qalbini to‘ldirgan his-hayajondan behad baxtiyor edi va xayolan o‘yladi: uning qaytishini bir umr kutishga qodirman.

Kimiko zimdan oyisi tomonga ko‘z tashladi va oyna ortidagi to‘siqqa quyosh nurlari tushib, yoritib turganini ko‘rdi. Keyin tizzasidagi anorga nigoh tashladi va uni tishlashga endi botinolmasligi haqida o‘yladi.

Abduvohid UMIROV tarjimasi.



THANKFUL FOR THE GOOD OLD DAYS



Ahmed was orphaned very early in life. First his father and then his mother passed away, the five-year-old boy was taken in by his sister, Jamila. Growing up in difficult times, amid hardship and hard work, Ahmed's youth coincided with the years of the World War II.

Not yet eighteen, Ahmed Muhsinov volunteered at the military recruitment office to go to the front. He took part in the bloody battles at Stalingrad. The young man, who quickly learned to fire a cannon with precision, distinguished himself with his bravery and resourcefulness. In one battle, an ambush carried out on his suggestion helped to rout the enemy. For this bravery, he was awarded his first combat medal.

After the liberation of Stalingrad, Ahmed Muhsinov served in the marines in Vladivostok and returned safely to Bukhara in 1947.

After the war, he worked at the regional printing house and graduated from the history faculty of Bukhara pedagogical institute by correspondence. He taught in the Romitan district and later held various leadership positions. Beginning his service in the internal affairs bodies in 1969, he rose to the position of Deputy Head of the political department of the regional Internal affairs directorate. He was honourably retired with the rank of major.

Even after his retirement, he remained actively involved in community affairs, youth welfare, and preventative measures.

Grandfather Ahmed, together with his wife Nargis, raised five daughters and two sons. Today, their grandchildren and great-grandchildren number over seventy. He currently lives a life of love with his youngest son Abror, his daughter-in-law Zuhra, and his grandchildren.

Ahmed Muhsinov, who lived for over a century, always stressed the importance of valuing peace. Among the orders and medals adorning his chest is the «Jasorat» medal for bravery, the highest honour of our independent homeland. This award is a fitting recognition for a life of bravery.

Translated by
Munavvar RASHIDOVA,
docent.

XAVFSIZ TURIZM

XIZMAT MANZILI – AYDARKO‘L SOHILLARI



Jizzax viloyati turizm sohasida katta salohiyatga ega. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi, Zomin milliy bog‘i va tog‘li hududlar har yili minglab sayyohlarni jalb qiladi. Aydarko‘l atrofida yirik sohil turizm majmuasi va sog‘lomlashtirish markazi qurilgan. Bu esa Arnasoy tumani aholisining daromadi oshishiga katta turtki berdi.

Yaqinda Arnasoy tumanida Jizzax viloyati IIB XTTB xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bo‘lim xodimlarining sa’y-harakatlari bilan joriy yilning o‘tgan davri mobaynida turizm obyektlarida jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari sodir bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmadi. Hududda 100 ta nazorat va kuzatuv kamerasi o‘rnatilib, kurortning monitoring markaziga ulangan. Ushbu markaz kecha-yu kunduz ishlaydi.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Suratlarda: viloyat IIB XTTB xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘limi xodimlari faoliyatidan lavhalar.



Hamal ayvonida kuylaydi havo,
Qizg‘aldoq qo‘shini qirlarga tushdi.
Meni yetaklab o‘t, ey Qari Navo,
Yuragim yurtida yulduzlar pishdi.

Eshqobil SHUKUR